TARBIYA 7

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinf o‘quvchilari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan
tavsiya etilgan

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2020

UO‘K 17(075.3)
KBK 87.7ya72
T 23

D. Kenjayev, N. Ismatova, D. Ro‘ziyeva, N. Xolmuxamedova, Sh. Sattorov, Z. Zamonov, Z. Islomov, O. Mahmudov, D. Rahimjonov, S. Akkulova, S. Shermuhammedova, S. Madaliyeva, S. Zokirova, L. Mo‘minova

Mas’ul muharrirlar: Z. Islomov – f.f.d., professor; D. Kenjayev – t.f.n.

Taqrizchilar:

Sh. Maxmudov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori o‘rinbosari, tarix fanlari nomzodi;
Q. Matxoliqov – O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi metodisti, tarix fanlari nomzodi;
Sh. Rasulov – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, birinchi bo‘lim bosh mutaxassisi, yuridik fanlari nomzodi;
A. Norboyev – Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchisi;
Z. Jabborova – Respublika ta’lim markazi metodisti;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan

SHARTLI BELGILAR

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi

ISBN 978-9943-6576-7-0

© D. Kenjayev, N. Ismatova va boshq., 2020
© «O‘zbekiston» NMIU, 2020

Assalomu alaykum hurmatli o‘quvchilar!

Mazkur darslikda siz tengqurlaringiz bilan chiroyli xulq omillari, do‘stlikning qadriga yetish zaruriyati, muvaffaqiyatga erishishda qat’iyat va matonatning lozimligi, tabiatni asrash shartlari va boshqa umuminsoniy fazilatlar majmuasi bilan tanishasiz. O‘zingizda kerakli ko‘nikmalar hosil qilish uchun turli ijodiy va va ta’limiy mashqlar orqali qiziqtirgan savollaringizga javoblar topasiz.

Binobarin, donishmandlar fikricha, tarbiyaning boshi – odob, yo‘li – insoniylik, bekatlari – to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, xush-xulqlik, mardlik, mas’ullik, manzili esa baxt-saodat vodiysi sanaladi. Ha, go‘zal tarbiya o‘zida barcha insoniy fazilatlarni birlashtirib, kishining hayot yo‘llarini nurafshon etadi.

Bundan ko‘rinadiki, ushbu odob-axloq me’yorlarini o‘zlash-tirishingiz natijasida xulq-atvoringizda ma’naviy barkamollik va go‘zal odob durdonalari shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizda yuksak ma’rifatli insonlarning ko‘payishiga xizmat qiladi. Bunday sharafli ishlarda sizlarga omad yor bo‘lsin!

Mualliflar jamoasi

1-MAVZU: INSON – EZGULIK IJODKORI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inson nima uchun uyini sog‘inadi? «Zumrad va Qimmat» ertagi esingizdami? Zumrad nima uchun tomga chiqqanida yig‘laydi?
2. O‘zbekistonning qaysi hududlariga sayohat qilgansiz? Taassurotlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
3. Quyidagi rasmlarga diqqat bilan qarang va savollarga javob bering:
   – rasmlardagi binolar qachon qurilganini bilasizmi? Bu binolarni qurishda insonlar qanday bilimlardan foydalanganlar?
   – mazkur bino va inshootlarning qurilishi, shahar va bog‘larning yaratilishi tarixidan so‘zlab bering.
4. Yuliy Sezarning: «Men ko‘rgan Rim paxsa devorli edi, мen qoldirayotgan Rim go‘zal imoratlardir», Amir Temurning: «Qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing», degan fikrlarini «Inson – ezgulik ijodkori» degan fikr bilan bog‘lab tushuntiring.

Mulohaza uchun

Sayohatga chiqish – yaxshi, uyga qaytish – yoqimli! Sayohat oldidan o‘zingizni uydan zerikkandek his qilsangiz ham, uyga qaytishning zavqi o‘zgacha. Vatanga qaytishning gashti ham xuddi shunday. Sayohat qiling, dunyo ko‘ring, o‘qib-o‘rganing va bir kuni, albatta, Vatanga qayting. Unutmang – siz uning aziz bir bo‘lagisiz.

Ijodiy faoliyat

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasini o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Ushbu moddada qanday majburiyatlar bayon qilingan?
2. Nima deb o‘ylaysiz, nega fuqarolar tarixiy, ma’naviy va madaniy merosni avaylab-asrashi shart?
3. Men ... majburiyatlarni bajaraman. Mening bu ... juda muhimdir.

Mulohaza uchun

VATANDIN YAXSHI YOR BO‘LMAS...

Bir yumush bilan Nyu-Jersi shahriga yo‘lim tushdi. Yonimdagi o‘rindiqda o‘tirgan o‘rta yoshli bir kishining men tomonga qarab turganini sezib, beixtiyor o‘girildim. Nigohimiz to‘qnashdi.

– O‘zbekistondanmisiz? – menga yuzlandi mayin tabassum bilan.

– O‘zbekistondanman, – deya o‘rnimdan turib, u kishining oldiga bordim. Salomlashdik. So‘rashdik. Suhbatdoshim ismi Bahodir, ota-bobosi asli andijonlik ekanligini aytdi. U Amerikada tug‘ilib, o‘sib, ota-buvalaridan meros kasb –

qandolatchilik bilan shug‘ullanar ekan.

– Otam Andijonning odamlari, bog‘-rog‘lari va Bog‘ishamol haqida ko‘p gapirganlar. Har safar eslaganlarida O‘zbekistonga, albatta, bir kun borishlariga ishonar edilar. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, yo‘llar ochildi. Vatandagi yaqinlarimiz bilan topishdik, diydor ko‘rishdik. Oxirgi yillarda ular besh marta Andijonga bordilar. Har safar: «Vatanimda ko‘z yumish nasib etsin», deb duoga qo‘l ochar edilar. Otamning duolari ijobat bo‘lib, Vatanda vafot etdilar.

– Otangizning joylari jannatda bo‘lsin, – dedim ko‘zlarim yoshlanib.

Nosir Zohid, yozuvchi

Ma’naviyat xazinasidan

VATAN TUYG‘USI

Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab ketmas edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l», – demishlar.

Abdulla Avloniy



Ma’naviyat xazinasidan

Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

Amir Temur

Ijodiy faoliyat

1. Vatan sog‘inchini qanday tasavvur qilasiz? Nega bu sog‘inch musofirni qiynaydi?
2. «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l» – deganda nima nazarda tutilgan?
3. Siz uyingizdan uzoqda bo‘lsangiz nimalarni sog‘inasiz?

Bilasizmi?

Intellektual salohiyat Vatanga muhabbat tuyg‘usi bilan uyg‘un bo‘lgandagina yuksak natijalar beradi. Qay makonniki, kimdir majbur qilmasa ham, mukofotlar kutmasdan, himoya eta boshlasangiz, ana shu Vatandur!

Bilimingizni mustahkamlang

1. «Ma’naviyat xazinasidan» ruknida berilgan hikmatni hayotiy misollar bilan izohlang.
2. Abdulla Avloniyning Vatan tuyg‘usi haqidagi fikrlarini davom ettirishga harakat qiling.
3. «Men nechun sevaman O‘zbekistonni...» mavzusida loyiha tayyorlang. Vatan haqidagi filmlar, badiiy asar va rasmlardan foydalaning.
4. Mustaqil ravishda quyidagi topshiriqlarni bajaring:
   – Zahiriddin Muhammad Boburning Vatan sog‘inchi haqidagi o‘y-fikrlarini «Vatandin yaxshi yor bo‘lmas...» hikoyasining asosiy g‘oyasi bilan bog‘lang.
   – Boburning shu mazmundagi g‘azal va ruboiylaridan namunalar toping va daftaringizga yozing.

2-MAVZU: OLIY MAQSADLAR BILAN YASHASH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ezgulik nima? «Ezgu maqsad, ezgu tilak, ezgu niyat» tushunchalari qayerda va qachon ishlatiladi?
2. Tug‘ilgan kuningizda barcha sizga yaxshi niyatlar bildirdi. Siz ulardan mamnun bo‘lib, «Ezgu tilaklaringiz uchun rahmat», deb javob berdingiz. Ezgu tilak nima?
3. Ezgu tilak va ezgu maqsad o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
4. Olimjon kelajakda shifokor, Zarnigor – o‘qituvchi, Sohibjon esa tadbirkor bo‘lmoqchi. Ularning maqsadlarini ezgu maqsad deyish mumkinmi?
5. Siz kim bo‘lmoqchisiz? Kelajakdagi kasbingiz ezgulikka qanchalik xizmat qiladi?

Mulohaza uchun

MAQSADGA NIMA OLIB BORADI?

Aql-zakovatda tengsiz ustoz Zohid kamonbozlikda ham beqiyos edi. Bir kuni tongda u mahoratiga bepisandlik bilan qaraydigan shogirdi hamrohligida uyi atrofini o‘rab olgan quyuq o‘rmonzorda kamondan o‘q uzish mashqlarini bajarar edi. Bunday mashg‘ulotlarga bir necha marotaba guvoh bo‘lgan izdoshi esa o‘zini mashqlarga befarqdek tutardi.

Ustoz eman daraxti ostida o‘sgan yovvoyi atirgul g‘unchasini uzib, daraxtning baland shoxiga ildi-da, undan yuz qadam uzoqlashdi. Uning harakatlaridan taajjubga tushgan shogird jarayonni diqqat bilan kuzata boshladi. Ustoz sadog‘idan o‘q olib, noyob yog‘ochdan tayyorlangan yoyiga ildi. Shogirdiga ro‘molcha uzatib, «ko‘zimni bog‘la» dedi, keyin:

– Mardlik timsoli bo‘lgan kamonbozlik bilan shug‘ullanganimni ko‘p ko‘rgansan, to‘g‘rimi? – dedi.

– Har kuni va yana atirgul g‘unchasini 300 qadam uzoqlikdan turib urishingizni ham, – dedi shogird.

Ustoz qaddini rostladi, oyoqlarini qulay joylashtirib, o‘ng yelkasi bilan orqaroq tisarildi, kamonni tarang tortib, o‘qni nishonga to‘g‘riladi. Vaziyatdan karaxt bo‘lgan shogird vizillab uchgan o‘qning ovozidan sergak tortdi. O‘q gul tugul daraxtga ham tegmaganini ko‘rgach, miyig‘ida kuldi.

– Xo‘sh, o‘qni tekkiza oldimmi? – so‘radi ustoz bog‘langan ko‘zlaridan ro‘molchani yechar ekan.

– Yo‘q! Taassufki, o‘q tamomila boshqa yoqqa qarab uchdi. Men inson idrokining qudrati bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisaga guvoh bo‘lamanmi, deb o‘ylab turgan edim. Afsus!.. – dedi shogird.

– Hozirgina senga inson idrokiga daxldor muhim saboqni berdim, – deya xotirjamlik bilan javob berdi ustoz. – Ko‘zim ochiqligida g‘unchani 300 qadamdan ura olaman. Garchi, bugun unga 2 barobar yaqin tursam-da, nishonga ololmadim.

Unutma, maqsadingga ko‘zing yetsagina erishasan. Aks holda, unga qanchalar yaqinliging ahamiyatsiz. Bu dunyoda o‘zi ko‘ra olmagan nishonga o‘qni urish hech kimga nasib qilmagan.

Ijodiy faoliyat

1. «Hozirgina senga inson idrokiga daxldor muhim saboqni berdim. Maqsadingga ko‘zing yetsagina erishasan», deganda ustoz Zohid nimani nazarda tutgan edi?
2. Oldingizga qo‘ygan maqsadingiz qanchalik aniq? Unga yetishish uchun qanday ishlarni amalga oshirishingiz kerak?
3. Maqsadingizni amalga oshirishda sizda qanday fe’l-atvor shakllanishi zarur?
4. Quyidagi pazllarni daftaringizga chizing va ularni maqsadingizni amalga oshirishingizga ta’sir etuvchi omillar bilan to‘ldiring (pazllar sonini ko‘paytirishingiz yoki kamaytirishingiz ham mumkin). Har bir omilni bir-biri bilan bog‘lang. Har bir natijangiz fe’l-atvoringizga qanday ta’sir o‘tkazishi mumkin?



Bilasizmi?

Donishmandlarning fikricha, insoniyat maqsadi – odamlarni insoniylikka o‘rgatishdir. Sharqona hikmatlarda daraxt ekish, ilm olish, oilasiga va boshqalarga yaxshilik qilib, ezgulik ulashish insonning oliy maqsadi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Mulohaza uchun

ORZULAR IZDOSHI

«Taqdir go‘zal orzulariga ergashganlarni yorqin tole bilan siylaydi», – degan fikrni menga do‘stim Monti Roberts singdirgan.

15 yoshli o‘g‘lim bilan do‘stim Montining fermasiga mehmonga bordik. O‘g‘lim do‘stimning eng ko‘rkam to‘riq samanini minaman, deb xarxasha qildi.

Atlanta – shu yaqin-atrofdagi eng chopqir saman. Do‘stim uni qanchalar avaylashi, parvarishlashini bilganim uchun ham o‘g‘limning istagiga qarshilik qildim.

– Qo‘ysang-chi, Jek! Qo‘yaver, o‘g‘ling shu to‘riqda chopa qolsin. Yigitlar ko‘z-quloq bo‘lib turishadi, – dedi xotirjamlik bilan do‘stim.

O‘g‘limning Atlantada chinakam chavandozlardek savlat to‘kib o‘tirishini ko‘rib, g‘ururga to‘ldim.

Monti ikkalamiz uni maroq bilan tomosha qilar ekanmiz, do‘stim menga yuzlandi:

– Bilasanmi, Jek, men nega o‘g‘lingni shu otda chopishga bo‘lgan xohishini qo‘llab-quvvatladim?

Men bir vaqtlar otda chopishni o‘rgatadigan oddiygina murabbiyning o‘g‘li edim. Yuqori sinfda o‘qiyotganimda amakim mendan kelajak rejalarim haqida so‘radi. Men ikki yuz gektarli ferma maydoni, son-sanoqsiz otlar parvarishlanadigan binolar, ulkan otchopar, yilqichilik xo‘jaligini boshqarish orzum haqida aytib berdim.

– Monti, orzular o‘z yo‘liga. Lekin hayot aniq rejalar ustiga qurilishi kerak. Endi yosh bola emassan, xomxayol bo‘lma. Aks holda men bu orzungni qadrlar edim, – deya e’tiroz bildirdi amakim.

Uzoq o‘ylab, otam bilan maslahatlashdim. «O‘z orzularingni omon saqlab qolishga haqqing bor, o‘g‘lim!» – dalda berdilar dadam. Shu sabab maqsadim sari intildim, – dedi u.

Monti bu hikoyani xotirjamlik, ichki bir entikish, bolalikka xos beg‘uborlik bilan so‘zlab berar ekan, men ko‘z o‘ngimdagi uning orzulari ro‘yobiga havas bilan boqardim.

– Oldingi yozda o‘sha amakim fermamda mehmon bo‘ldi. U men bilan xayrlashar ekan: «Monti, bu gaplarni senga aytish vaqti keldi. Men o‘shanda nohaq ekanman, inson doim orzulari tomon intilsa, shundagina o‘z orzulariga albatta erishar ekan», – dedi va qoyil degandek yelkamga qoqib qo‘ydi, – deya hikoyasini tugatdi do‘stim.

J. Kenfild

Ijodiy faoliyat

1. Hikoyani o‘qib, qanday xulosaga keldingiz?
2. Montidagi qaysi fazilatlar orzusini amalga oshirishga yordam berdi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, Monti nima uchun amakisining e’tirozidan so‘ng ham o‘z orzusi tomon intildi?

4. Tasavvur qiling va javob bering:

A. Kelajagingizni qanday tasavvur qilyapsiz?
– mashhur tadbirkor yoki biror kompaniyaning rahbarisiz;
– o‘zingizga yoqqan sohada ishlayapsiz;
– shinam va chiroyli xonadonda istiqomat qilyapsiz;
– tajribali mutaxassissiz.

B. Bular ajoyib orzular-ku, to‘g‘rimi? Orzungizni maqsadga aylantiring. Qanday qilib deysizmi?! Reja tuzing. Orzu shisha kabi mo‘rt, ammo reja paydo bo‘lishi bilan u mustahkamlanadi. Bu rejani maqsadga aylantiring.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Quyidagi savollarni muhokama qiling:
- Siz hozir qanday maqsad bilan yashayapsiz?
- Sizning vaqtingiz rejalimi?
- Orzungizga erishish uchun nima qilishingiz kerak?
- Baxt va saodatga erishishning sirlari nimada deb o‘ylaysiz?

2. Nuqtalar o‘rniga mos gaplarni qo‘ying. Fikringizni asoslang. Yana nimalarni qo‘shimcha qilar edingiz?
- **«Hayotning mazmuni bu – ...»**

Hayotiy qadriyatlar. Bilim va hunar egallash. Ota-onamning orzulari ushalishi. Oldimga qo‘yilgan maqsadga erishishim. Tinchlik va xotirjamlik.
- **«Muvaffaqiyatga erishishimizda ... salbiy ta’sir ko‘rsatadi».**

Dangasalik, yalqovlik, sabrsizlik, bilimsizlik, isrofgarchilik.

3-MAVZU: MUVAFFAQIYAT – QUNT VA QAT'IYAT NATIJASI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Oldingizga qo'ygan maqsadingizga erishish uchun nimalar qilishingiz kerak?
2. Qunt va qat'iyat deganda nimani tushunasiz?
3. Komiljon robototexnika bo'yicha o'tkazilgan musobaqada o'zi yasagan robot bilan ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu robotni yasash uchun bir yil vaqt sarfladi. Gohida buzib, qayta yig'di. Komiljonning faoliyatida qunt va qat'iyat qanday o'rin tutgan, deb o'ylaysiz?
4. Muvaffaqiyatga erishishning siri nimada? Quyidagi rasmlar asosida izoh bering.

Mulohaza uchun



Jeyms Dayson. Britaniyalik bu tinib-tinchimas odam eng yaxshi changyutkichni yaratish uchun 15 yil davomida roppa-rosa 5126 xil changyutkichni namunasini ixtiro qilgan. O‘z yurtida uni hech kim qo‘llamagan. Yaponiyalik sarmoyadorning yordami bilan o‘zi istaganidek bekam-ko‘st changyutkichni yaratishga erishgan.

Bilasizmi?

«Muvaffaqiyatni o‘rganib bo‘lmaydi, biroq muvaffaqiyatsizlik – katta bilim va qunt», degan edi ixtirochi. Qat’iyatli insonlar to‘xtab qolmaydilar – maqsadlari sari qat’iy boradilar. Har bir xayrli ishga ijobiy qarang, yaxshisiga umid qiling.

Muvaffaqiyat – qat’iylikda. Masalan, barcha biror ishni bajarish imkonsiz deb turganida bir qat’iyatli inson, «Bo‘lishi mumkin!» deydi-da, o‘sha ishni uddalaydi.

Aniq reja va maqsad bilan yashaydigan insonlar doimo munosib va muvaffaqiyatli umr kechiradilar.

Ma’naviyat xazinasidan

SHUKRONALIK

Inson boylikka ega bo‘lib, baxtli yashamasligi, aksincha o‘rtahol bo‘lib, baxtli yashashi mumkin. Muhimi – qilayotgan ishingizdan insonlarga foyda bo‘lsin. Ana shunda ruhan va ma’nan boy bo‘lasiz. Bu esa, hayotda baxt va muvaffaqiyatga erishishda muhimdir.

HALOL BO‘LISH

To‘g‘riso‘zlik va halollik ustiga qurilgan umr – eng go‘zal umrdir. Diyonatli inson birovning haqqiga ko‘z olaytirmaydi va hayotiga yolg‘onni aralashtirmaydi. Sharq donishmandlarining bir gapi bor: «Bir harom luqma deb, ming halol luqmani yo‘qotasan».

Mulohaza uchun

INTILISH VA HARAKATDAN TO‘XTAMANG

Munosib va muvaffaqiyatli umr kechirish har bir insonning o‘z istak va intilishlari evaziga amalga oshadi.

– Agar ishing yurishmasa, harakat qil! Shunda ham ishing yurishmasa, yanada ko‘proq harakat qil! Bordi-yu, baribir ishing yurishmasa, sen uchun birgina yo‘l qoladi – u ham bo‘lsa, faqat harakat qilishdir. Shundagina sen munosib umr yo‘liga tushib olasan, bu yo‘lda uzoq vaqt yurishing uchun esa intilishing va mehnatni qadrlashing kerak bo‘ladi.



Dunyoda hech yengib bo‘lmaydigan kuch – bir daqiqadir. Biz uchun ahamiyatsiz bo‘lgan shu birgina daqiqalar yig‘ilib umrni hosil qiladi va aksincha, umrni besamar yo‘q qilishga ham olib kelishi mumkin. Demak, vaqt ham quradi, ham yemiradi. Faqat undan munosib foydalanganlargina nurli va muvaffaqiyatli umr yo‘llaridan boradilar.

Murodulla Rayimov, matematik olim

Ma’naviyat xazinasidan

Modomiki to‘xtamas ekansan, sekin yoki tez yurayotganing – ahamiyatsiz. Muhimi – to‘xtab qolmaslik.

Konfutsiy

Bilasizmi?

Muvaffaqiyat kaliti:

– muvaffaqiyatga erishish oson, buning uchun unga va o‘zingizga ishoning;

– sizda hech kimda yo‘q va o‘ziga xos nimadir bor;

– siz bu olamga munosib yashash, baxtli bo‘lish, va albatta, yuksak ezgu maqsadlarga erishib, muvaffaqiyat qozonish uchun kelgansiz;

– bilasizmi, sizning hayotingizga tegishli eng muhim inson – bu sizsiz;

– muvaffaqiyatning siri juda oddiy va u sizdan qat’iyatlilikni talab qiladi;

– agar inson o‘zi bilan kelisha olsa, butun dunyo bilan ham kelisha oladi, bu esa muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Muvaffaqiyat – yaxshi natija, erishilgan yutuq, omad. Biror ishda qozonilgan g‘alaba. **Qat’iyat** – qat’iylik, uzil-kesillik; dadillik, matonat, sabot. O‘z fikrida, so‘zida, azm-u qarorida qattiq turish.

Qunt – itoatkorlik, hafsala. Biror ishni astoydil berilib, sabr-toqat bilan bajarish ishtiyoqi.

Matonat – mustahkam iroda, sabot, chidam, bardoshli bo‘lish.

Ijodiy faoliyat

1. Olgan ma'lumotlaringiz asosida muvaffaqiyatga erishishda yana nimalarga e'tibor berish kerakligini sanang.
2. Nima uchun halollik va to‘g‘rilikni baxt va muvaffaqiyat kaliti deyishadi? Hayotiy misollar keltiring.
3. Hayot pillapoyalarining har bir pog‘onasini nomlang. Siz hozir qaysi pog‘onadasiz? Fikringizni asoslang.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Siz hayotda qanday muvaffaqiyatlarga erishgansiz?
2. Muvaffaqiyatga erishishingizda kimlar ko‘mak bergan?
3. Mavzuda berilgan matnlardan foydalanib, tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping va daftaringizga yozing.

Qat'iyatli insonlar ... qolmaydilar – ... sari ... boradilar. Har bir ... ishga ijobiy qarang, ... umid qiling. To‘g‘riso‘zlik va ... ustiga qurilgan umr – eng go‘zal umrdir. Muvaffaqiyatga erishish ..., buning uchun unga va o‘zingizga ... . Muvaffaqiyatning siri juda ... va u sizdan ... talab qiladi.

4–5-MAVZULAR: UMR-UMID-SINOV-IMKONIYAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zoye o‘tkazilgan vaqt degan tushunchani izohlashga harakat qiling. Siz hayotingizda: «Vaqtni zoye o‘tkazdim, imkoniyatdan noto‘g‘ri foydalandim», degan holatga tushganmisiz?
2. Soatlab kompyuter o‘yinlari bilan band bo‘lib, uy vazifalarini bajarishga vaqtingiz yetmasdan, yomon baho olgan vaqtlaringiz bo‘lganmi?
3. Nima uchun kattalar insonda muammo tug‘ilsa, «Bu bir sinov, matonatli bo‘ling, yengasiz, oldinda hali imkoniyatlaringiz ko‘p», deb aytishadi?
4. Imkoniyat o‘zi nima? Sizda qanday imkoniyatlar bor?
5. Hayotingizdagi eng katta yutuq nima bolgan va u sizga qanday imkoniyatlar bergan?

Mulohaza uchun

UMR – OQAR DARYO

To‘lqinlari shosha-pisha oqayotgan daryo bo‘yida varrak uchirayotgan bolakay yonidagi bobosiga savol berdi:

– Bobojon, nega umrni oqar daryo deyishadi?

– Daryoning shoshqaloq suvi – vaqtga, katta xarsanglar – umrimizdagi katta maqsadlarga, mayda toshlar esa – ko‘z ilg‘amas kichik maqsadlarga o‘xshaydi. Hayotda ham katta maqsadlarga kichik maqsadlar orqali yetamiz, – deya javob berdi bobo.

– Bobojon, nega vaqt darsda yoki biror ish qilayotganimda sekin, do‘stlarim bilan o‘ynaganimda esa juda tez o‘tadi? – dedi bolakay.

– Ko‘ryapsanmi, – dedi bobo o‘ychanlik bilan, – shamol bo‘lmasa, sening varraging samoga, ya’ni yuqoriga ko‘tarila olmagani kabi, insonni ham maqsadlariga mashaqqat bilan bosgan yo‘li yetkazadi.

Ijodiy faoliyat

1. «Insonni maqsadlariga mashaqqat yetkazadi», deganda nima nazarda tutilayapti?
2. O‘zingizga: «Men duch kelishim mumkin bo‘lgan muammoni qanday yengaman? Mening maqsadim nima va unga qanday erishaman?» degan savolni bering va javobini qidiring. Fikrlaringiz chalkashib ketdimi? Unda quyidagi o‘yindan foydalaning:

Daftaringizga doirachalar rasmini chizing va doiracha ichiga muammoni yozing.

1 doiracha ichiga muammoning kelib chiqish sabablarini yozing;

2 doiracha ichiga muammoning sabablari nimaga ta’sir qilganligini yozing;

3 doiracha ichiga muammoning sabablariga nima ta’sir qilganligini yozing;

4 doiracha ichiga ta’sir sabablarini yozing.

Barcha doirachalarni to‘ldirib, to‘rtinchi raqamli ta’sir etuvchi omilni bartaraf etsangiz, barcha muammolar o‘z-o‘zidan hal bo‘ladi. Sabablar yo‘qolgan bo‘lsa, «muammo» so‘zining o‘rniga «maqsad» deb yozing. Qolgan doirachalar ichiga maqsadga erishish bosqichlari va unga ta’sir etuvchi omillarni yozing. Yozganlaringizni hayotga tatbiq qiling.

Abdulla Oripovning quyidagi she'rini o'qib, savollarga javob bering.

DORBOZ

Bulutlarga yondosh osmon ostida,
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida,
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.

Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.
Biz-chi, eh… ba'zi bir ko'zi ochiqlar,
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.

1. Dorboz havodagi arqonda bemalol yurishni qanday uddalaydi?
2. Shoir «ba'zi bir ko'zi ochiqlar» deganda kimni nazarda tutgan?
3. Shoir: «Katta yo'lda ham eplab yurolmaydiganlar» deganda, nimani yoki kimlarni nazarda tutadi?

Ijodiy faoliyat

«Uddalay olmayman» tushunchasi miyani qulflaydi. Shu tobda: «Buni qanday amalga oshirsam bo'ladi?» – deb aytish, aksincha, ishlashga majbur etadi.

Robert Kiyosaki

1. «Uddalay olmayman» tushunchasi miyani qanday qulflashi mumkin? Quyidagi mashqni bajaring:
   – Mening ... .
   – Men bu ishni ... .
   – Muammolarni ... .
   – Oldimga qo'ygan maqsadim ... .
   – Qiyinchiliklar ... .



Ma’naviyat xazinasidan

Aziz farzandim! Unutmang, umringiz – sizning siringizdir. Zotan, umr yo‘lida uchraydigan hayotning barcha quvonch-u tashvishlarini munosib yengib o‘tishingiz uchun astoydil mehnat qilmog‘ingiz, o‘z ustingizda ishlamog‘ingiz, o‘qib-o‘rganmog‘ingiz zarur.

«Ertalabdan to quyosh botguncha nima ish bilan shug‘ullandim?» – degan ichki nido savol berdi, deylik. Xo‘sh, bunga javobingiz qanday bo‘ladi? Shunday paytda hech bir qizarmasdan, avvalo, o‘z vijdoningiz oldida dadil javob bera olsangiz, demak, kuningiz bekorga o‘tmagan.

Haftangiz zoye ketmabdi, oy, yil, qolaversa, umringiz mazmunsiz o‘tmayapti. Biroq aksi bo‘lsa-chi?! Bundan yomoni yo‘q.

Unutmang! Inson hayotida kitob doim kerak bo‘ladi! Kitob sizga bilim beradi, evaziga hech narsa talab qilmaydi. Sirlashasiz, siringizni birovga aytmaydi. Qalbingizga taskinlik ato etadi, buning uchun sizdan haq talab etilmaydi. Jaloliddin Rumiy lutf etganidek:

«Mo‘jiza emasdir falakda oftob,
Mo‘jiza aslida beminnat kitob».

Aziz ustoz-murabbiylar-chi? Ular sizga bilmaganingizni bilishga, hayotda o‘rningizni topishingizga yordam beradi, evaziga sizdan biron nima talab qilishmaydi.

Demak, kitoblar, ustoz-murabbiylar siz uchun hayotda o‘z o‘rningiz va mavqeyingizni mustahkamlash omillari, yuksalish sababchilari ekanlar. Bu oddiy haqiqatni unutishga hech ham haqqingiz yo‘q, bolajon!

Mulohaza uchun

PO‘LAT IRODA SOHIBI

Pul topish uchun velosipedda do‘konlarga guruch tarqatib yurgan o‘smir bir kuni do‘stlariga: «Men Koreyada avtomobil ishlab chiqaraman», dedi. Do‘stlari uning ustidan kulib, «Kunlik noningni topib yeb tur», deyishdi.

Katta orzular o‘smirni o‘ziga chorladi. U guruch tashish bilan birga, turli joylarda yuk tashuvchi, avtomexanik, oddiy ishchi bo‘lib ishladi. Kundalik topgan mablag‘laridan chegirib, 1939-yilda kichik avtomobil ustaxonasini ochdi. Bu bilan u to‘xtab qolmadi. Ustaxonani kengaytirdi. Koreyada birinchi bo‘lib «Poni» nomli avtomobilni ishlab chiqardi. Keyinchalik bu avtomobil «Hyundai Motors» avtomobilini ishlab chiqarish uchun asos bo‘ldi. 1946-yilda bu ustaxona «Hyundai» (zamonaviy) nomi bilan ishlay boshladi.

1915-yilda Koreyaning chekka qishlog‘ida tug‘ilgan Chung Ju Yung «Po‘lat iroda sohibi» degan nom oldi. Uni Asan deb ham chaqirishardi. Asanning sa’y-harakati bilan bugun «Hyundai Group» jahonda eng yirik kemasozlik, avtomobilsozlik kabi o‘ndan ziyod sohalarda yetakchi sanaladi.

Ijodiy faoliyat

1. Asan orzusiga erishishi uchun o‘zida qanday fazilatlarni shakllantirishga harakat qilgan?
2. Siz orzungizga erishish uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishingiz kerak?
3. Suratlarga nom qo‘ying. Ularda qanday vaziyat aks etganini daftaringizga yozing.
   – 1- va 3-rasm o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
   – 2- va 4-rasmlarda umumiylik bormi?
   – «Qo‘ldan berganga qush to‘ymas» degan xalq maqolining 4-rasmga aloqasi bormi?
   – 2-rasmdagi ko‘zgu ortidagi tilanchi kim?
   – Tabiatan o‘ta nozik xilqat bo‘lgan gul qattiq yerni yorib chiqishi sizni hayratlantiradimi?

Ma’naviyat xazinasidan

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Amir Temur

Ijodiy faoliyat

1. «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy tadbirkor va hushyor» so‘zlariga ta’rif bering.
2. Sizda bu sifatlarning qaysi biri mavjud?
3. Ularni o‘zingizda kamol toptirishingiz uchun sizdan nimalar talab qilinadi?
4. Loqayd kishilar jamiyat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Bilimingizni mustahkamlang

1. Abu Mansur Moturidiy bildirgan fikrni tahlil qiling: «O‘tgan hayotingni o‘z mualliming deb bil».

2. Bilamizki, bog‘bon yosh, yangi niholni alohida parvarishlab, uni barcha zaruriy ozuqa va minerallar bilan vaqtida oziqlantiradi. Shundagina bog‘bon mehnatining hosilini oladi. Siz o‘zingizni yosh nihol deb tasavvur qiling. Kelajakda o‘z maqsadlaringizga erishishingiz uchun sizga qanday «ozuqa va minerallar» kerak, deb o‘ylaysiz? Sanang va daftaringizga yozing: *vaqtni qadrlash, sabrli bo‘lish, ...*

6-MAVZU: TABIATNI ASRASH – HAYOTNI ASRASH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Har yili bahor kelishi bilan odamlar turli ko‘chatlarni ekishga shoshiladilar. Siz ham ko‘chat ekkanmisiz? Ko‘chat ekishdan maqsadingiz nima bo‘lgan?
2. Tabiatni asrash uchun siz qanday hissa qo‘sha olasiz?
3. Plastik idish va paketlar yerga ko‘milsa, qancha vaqtgacha chirimasligini bilasizmi?
4. Tabiat va inson sog‘lig‘i o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Bilasizmi?

Zaharli kimyoviy moddalarning atrof-muhitda barqarorligi va doimiy ko‘chib yurishi insonlarning salomatligiga katta zarar keltiradi. Yer kurrasida yiliga 20 milliard tonnadan ziyod ko‘mir yoqiladi. 2,5 milliard tonna neftdan yonilg‘i sifatida foydalaniladi. Ulardan havoga 200 million tonna is gazi, millionlab tonna benzin bug‘i va boshqa zaharli gazlar ajralib chiqadi. Bitta transatlantik havo laynerining parvozi 50 tonna kislorodni yo‘q qiladi.

Atmosferani zaharlaydigan moddalarning 40%i transportdan, 20%i turli yoqilg‘ilardan, 15%i ishlab chiqarish jarayoni va 25%i boshqa manbalardan chiqadi.



Mulohaza uchun

1960-yillarda siz suratda ko‘rib turgan joylarda dengiz mavjlanib oqqan. Shu yillargacha Orol Kaspiy dengizi, Viktoriya va Yuqori ko‘l qatorida dunyoning to‘rtta eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo‘lgan. Orolbo‘yi suv havzasida yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan. Dunyo okeaniga chiqish yo‘li mavjud bo‘lmagan suv havzasida baliqlarning noyob turlari yashagan va ular jahon ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otgan.

Orolning chuqurligi ayrim joylarda qariyb 68 metrgacha yetgan va bu atrof-muhit, iqlim, odamlar hamda hayvonot dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Hozir esa suratdagi joy «Kemalar qabristoni» deyiladi. Orol dengizining qurib bitgan qismi o‘rnida 5,5 million gektardan ziyod maydonda yangi Orolqum sahrosi paydo bo‘lgan. Baliqlarning barcha turlari, mavjud o‘simliklarning yarmi, jumladan, qirg‘ovul, boyo‘g‘li, to‘ng‘iz, bo‘rsiq va jayra yashagan to‘qayzor hamda qirg‘oqoldi o‘rmonlar yo‘q bo‘lib ketgan.

Amudaryo va Sirdaryo suvining Orolga quyiladigan umumiy hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi esa 14 barobardan ko‘proq kamaydi. Orol dengizi suvining sho‘rlanish darajasi 25 marta ortishi baliq va boshqa dengiz mavjudotlarining butkul qirilib ketishiga olib keldi.

Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz.

BMT Bosh kotibining «Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq» degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q.

O‘zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda.

Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEVning
BMT Bosh Assambleyasi
72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan

Bilasizmi?

Preventiv diplomatiya – tomonlar o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘lishining oldini olish, mavjud kelishmovchiliklarning mojaroga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek mojaroning tarqalishini cheklashga qaratilgan diplomatik harakatlar.

Ijodiy faoliyat

1. **«Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq»** matnini diqqat bilan o‘qing va savollarga javob bering:
   – «Xalq manfaatlarini teng hisobga olish» deganda nima nazarda tutilgan?
   – Orol fojiasidan aholi qanday jabr ko‘rishi mumkin?
2. **Amaliy mashg‘ulot:** «Mening hududimdagi tabiat – mening himoyamda».
3. **Loyiha uchun taxminiy mavzular:**
   – «Men yashaydigan joyning boy tabiati aks etgan eng sara suratlar».
   – «Men yashaydigan hududdagi ekologik muammolar».
   – «Inson tabiatning xaloskorimi yoki ...?»
4. **Vazifalar:**
   1. Siz tanlagan loyiha maqsadini aniqlang. Loyiha jarayonida biror muammoni ilgari suring. Shunga ko‘ra unga javob bo‘ladigan muhim savollar ro‘yxatini tuzing.
   2. Tanlagan mavzudan kelib chiqib, o‘zingiz istiqomat qilayotgan joydagi tabiat, ekologik muammolar, insonlarning tabiatga munosabati, tarixiy-madaniy merosni o‘rganing.
   3. O‘ziga xosliklari, hozirgi muammolar va holatini yozing, surat yoki tasvirga oling.
   4. Kattalar yoki mutaxassislar bilan suhbatlashib, savollaringizga javob topishga urining. Javoblar asosida videolavha tayyorlang.
   5. Siz ko‘targan muammoni hal qiluvchi yechimlarni yozing. Ularning natijasi qanday bo‘lishiga oydinlik kiriting.
   6. To‘plangan barcha materiallarni yig‘ib, taqdimot, devoriy gazeta yoki poster (suratlar jamlanmasi) tayyorlang.

7-MAVZU: INSON AXLOQI BILAN GO‘ZAL

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday holatlarda axloqi «go‘zal» deyiladi?
2. Matnni o‘qing va Anvarning axloqi haqida fikr bildiring. Bunda mehmonga borish, muomala, sabr, kattalarga hurmat kabi tushunchalarga e’tibor qarating.

Mehmonga ketayotib, Anvar va uning onasi shirinlik olish uchun do‘konga kirishdi. Anvarning onasi do‘konda bir tanishini ko‘rib qoldi. Bola salom berib, sekin chetga o‘tib turdi. Ikki dugona anchadan beri ko‘rishmaganligi sabablimi, bir-birlarini oilaviy ahvollaridan tortib, ishlari-yu sog‘liklari, farzandlarining qaysi maktabda o‘qishlarigacha so‘rab, qizg‘in suhbatlashishdi. Anvar onasining oldiga borib, sekin qo‘lidan tortganday bo‘ldi. Onasi: «Mening katta o‘g‘lim, bu yil 7-sinfga o‘tdi», – deb erkalab qo‘ydi. Anvar bir onasiga, bir onasining dugonasiga qaradi va norozi ohangda ... tadbirga kech qolayotganliklarini eslatdi. Dugonalar xayrlashishdi.

Ma’naviyat xazinasidan

Barcha ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin!

Mulohaza uchun

Bir donishmand kishidan: «Qaysi fazilatlar eng yaxshi fazilatlar sanaladi?» – deb so‘rashibdi. «Tabassum qilmoqlik, shirin so‘zlamoqlik, xushmuomala bo‘lmoqlik», – deb javob beribdi u.

Ijodiy faoliyat

1. «Axloqi va muomalasi go‘zal inson – insonlarning eng sarasidir», deganda nima nazarda tutilgan?
2. Matnni «Barcha yaxshilik – xushxulqlikdadir. Barcha gunoh va yomonlik – dildagi g‘ashlik va odamlar ko‘ziga uyatli ishdadir», degan hikmat bilan bog‘lab ko‘ring.

Ma’naviyat xazinasidan

O‘zining aybini bilganda odam,
Boshqalar aybini so‘zlamasdi ham.

Abulqosim Firdavsiy

Mulohaza uchun

KAPALAK HAQIDA RIVOYAT

Qadim zamonlarda bir donishmand bo‘lib, odamlar undan maslahat olar ekan. U hammaga yordam berar, odamlar unga ishonar, yoshi, donoligi, hayotiy tajribasini hurmat qilar ekanlar.

Kunlardan bir kuni hasadgo‘y odam ko‘pchilik oldida donishmandni uyaltirmoqchi bo‘libdi va: «Kapalakni tutib, kaftimga solib, olib kelib, donishmanddan: «Kapalak tirikmi yoki o‘lik?» – deb so‘rayman. Agar donishmand tirik desa, kapalakni kaftimda ezg‘ilab tashlayman, o‘lik desa, kaftimni ochib uchirib yuboraman-da: «Buyuk donishmand adashdi, deyman», – deya ayyor reja o‘ylabdi.

Hasadgo‘y kapalak tutib, donishmandning oldiga kelib: «Kaftimdagi kapalak tirikmi yoki o‘lik?» – deb so‘rabdi.

Donishmand: «Hammasi o‘z qo‘lingda», – deb javob beribdi.

Ijodiy faoliyat

1. Ayting-chi, donishmand: «Hammasi o‘z qo‘lingda», – deganda, nimani nazarda tutgan?
2. Birgina qilingan axloqsizlik kimningdir hayotini o‘zgartirib yuborishiga ishonasizmi?
3. Siz maktabdagi o‘rtoqlaringiz uchun qanday ezgu ishlar qila olasiz?

Bilasizmi?

Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o‘zini tutishi, boshqalar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, o‘z turmushi, ya’ni shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlarini ifodalovchi xususiyatdir.

Ma’naviyat xazinasidan

Biror inson bilan do‘st bo‘lishdan avval undagi axloqiy fazilatlarga diqqat qiling. Agar unda axloqsizlik odatlari bo‘lsa, undan uzoqroq yuring.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Tarbiyali insonlar bilan do‘stlashishning ijobiy tomonlarini sanab bering.
2. «Sen do‘stingning kimligini ayt, men sening kimligingni aytaman», degan iboraning mohiyatini tushuntiring.
3. Yomon do‘st bilan yaqinlashishning noxush natijalari haqida kitoblarda o‘qiganmisiz? Aytib bering.
4. Mavzuga oid suratlardan iborat poster tayyorlab keling.

8-MAVZU: INSON ODOBIDA AKS ETUVCHI FE'L-ATVOR

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Insonga xos bo'lgan fe'l-atvor deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday sifatlar insonning vijdonli ekanligini bildiradi?
3. «Inson fe'l-atvorini o'zgartirishi uchun o'zini o'zi tarbiyalay olishi kerak», degan fikrga qo'shilasizmi?

Mulohaza uchun

O'qituvchi sinf xonasiga kirib kelishi bilan o'quvchilarga navbatdagi nazorat ishiga tayyorgarlik ko'rishlarini aytdi. O'quvchilar savollarni o'qish maqsadida nazorat varaqlarini ochishdi va bir-birlariga ajablanib qarashdi. Chunki nazorat varaqasining o'rtasidagi kichik qora nuqtani hisobga olmaganda, qog'oz bo'm-bo'sh edi.

«Qog'ozda nimani ko'rayotgan bo'lsangiz, shu haqda yozishingizni so'rayman», – dedi o'qituvchi.

Ijodiy faoliyat

1. O'quvchilar nima deb yozgan bo'lishlari mumkin?
2. Siz nima deb yozgan bo'lar edingiz?

Mulohaza uchun

Birozdan so‘ng varaqlar yig‘ib olindi. Javoblar birma-bir ovoz chiqarib o‘qildi. Bitta o‘quvchidan tashqari barcha bolalar qora nuqta varaqning o‘rtasida joylashgani haqida yozgan edilar. O‘qituvchi esa boshqacha javob yozgan o‘quvchining fikrini e’tirof etdi.

Ijodiy faoliyat

Nima deb o‘ylaysiz, boshqacha javob qanday bo‘lishi mumkin?

Mulohaza uchun

Boshqacha javob: «Biz insonlarning katta xatosi ham shunda. Doim yaxshi narsalar qolib, yomonliklarga diqqat qilamiz. Insonlar bilan munosabatda ham ko‘pincha kimningdir kichik xatosi tufayli uning barcha to‘g‘ri ishlarini unutib qo‘yamiz. Bu – katta xato!»

Ma’naviyat xazinasidan

Biror kimsaga yaxshilik qilsang, shuni bilki, sening saxovatingdan u behad shod bo‘lgani kabi, senga ham shunchalik zavq nasib etadi.

Kaykovus «Qobusnoma»

Mulohaza uchun

Inson o‘zining his-tuyg‘ulariga hukmron, ularni o‘zgartirishga, boshqarishga qodir, o‘z ruhi va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtaydigan narsalarga aylantirishga, uni tibbiy usul bilan ma’naviy davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir bo‘ladi.

Abu Rayhon Beruniy

Ijodiy faoliyat

1. Inson qanday qilib o‘z ruhi va tanasini tarbiyalashi mumkin?
2. Axloq haqida qanday kitoblar o‘qigansiz?
3. O‘qigan kitoblaringiz ta’sirida u yoki bu yomon odatlaringizni tark etganmisiz?
4. Qanday inson o‘z hislarini nazorat qila olmaydi?
5. Inson nega yolg‘on gapiradi?
6. Tushunmovchiliklar nega sodir bo‘ladi?

Mulohaza uchun

Insonning odobi uning barcha sifatlaridan muhim. Uning barcha sifatlari odob bilan fazilatlarga aylangan. Odamzod odobi, xulqi bilan «inson» degan sharafga loyiq bo‘lgan. Ba‘zilarning nazdida arzimasdek tuyulgan kamchiliklar bartaraf etilmas ekan, bora-bora bu kichik ayb-u nuqsonlar katta halokatlarga olib keladi.

Bilasizmi?

Obro‘ga erishishning eng halol yo‘li – kamtarlik.

Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi axloq qoidalarining qaysi birini birlamchi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
2. Ular insonning muvaffaqiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Baxt va saodatga erishish uchun yana qanday axloqiy qoidalarga rioya qilish kerak?
4. Mulohaza uchun berilgan matnni sinfda muhokama qiling. Lug‘atdan «Odob», «Sifat», «Fazilat» so‘zlarining ma’nosini toping.

Rostgo‘y bo‘ling. Rostgo‘ylik inson qadrini yuksaklikka ko‘taradi.

Xolis odamlarni tinglang. Muvaffaqiyatli muloqotning siri suhbatdoshingizni tinglay olishingizda.

G‘azablanmang. Xotirjamlikni saqlang. Tinchlik, osoyishtalik, xotirjamlik, sokinlik – g‘alaba kaliti.

O‘z hatoyingiz uchun boshqalarni ayblamang. Birovning ayblari haqida gapirishdan avval o‘zingizdan ayb qidiring.

O‘zingizning zararingizga bo‘lsa ham doimo rost gapiring, adolatli bo‘ling, yaxshilik qiling.

O‘zingizga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘ring.

Xatti-harakatingiz boshqalarga qanday ta’sir qilishini o‘ylang. Muammolarni hal qilishda barcha uchun manfaatli yo‘l tanlang.

Bilasizmi?

KINTSUGI – OLTIN BILAN YAMALGAN IDISH

Yaponlarda «kintsugi» san'ati bor. Qadimiy va qimmatbaho chinni idish sinib qolsa, uni kintsugi (bizda qadimiy hunarlardan biri «chegachilik») ustasiga olib borishgan. Usta idish bo'laklarini oltin suvi bilan qayta yamagan.

Suratga diqqat qiling. Singan idishni oltin bilan har qancha zarhallamang, uning singanini yashirib bo'lmaydi. Inson ko'ngli ham qimmatbaho idish kabi – sinsa, harchand urinmang, uni asl holiga keltirib bo'lmaydi.

Nima deb o'ylaysiz, inson ko'nglini nimalar chilparchin qiladi?

Ma'naviyat xazinasidan



To'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlash, halollik, insofli va adolatli bo'lish, xushmuomala va shirinsuxanlikni odat qilish, nafsga berilmaslik, fozillar suhbatidan bahramand bo'lish, kattalarning hurmatini joyiga qo'yish, kichiklarga shafqatlilik, samimiy do'stlik, muhtojlarga yordam berish va in'om-ehson qilishni unutmaslik, nodonlarga nasihat, maslahat berish kabi fazilatlar barcha ezgulikning asosidir.

Abu Ali ibn Sino

Bilimingizni mustahkamlang

1. Abu Ali ibn Sino «barcha ezgulikning asosi» sifatida nimalarni e'tirof etgan?
2. «Fozillar suhbatidan bahramand bo'lish», deganda nimani tushundingiz?
3. Badiiy asarlarda berilgan xushmuomalalik va shirinsuxan muloqot yoki suhbatlardan parcha keltiring.

9-MAVZU: INSONLARNI BIRLASHTIRUVCHI UMUMINSONIY XISLATLAR

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Atrofingizdagi insonlarda qanday xislatlar bo‘lishini istar edingiz?
2. Donishmandlarimizning: «Odamlarga yaxshilik qilib, ezgulik ulashish zarur», «Axloq – insonning, oilaning, jamiyatning ko‘rkidir», degan fikrlarini qanday izohlaysiz?

Mulohaza uchun

CHIN DO‘STLIK

Bir yigitning ishi yurishmay, iqtisodiy tanglikka uchradi. U do‘stlaridan yordam so‘rab murojaat qildi. Birinchi do‘sti uning bu holatga tushib qolishiga o‘zi sababchi ekanini yuziga solib, qattiq koyidi. Ikkinchi do‘sti esa, o‘zining qanday qilib pul to-payotganini aytib, rosa maqtandi. Unga ko‘pdan ko‘p pand-u nasihatlar qildi.

Uchinchi do‘sti ma’lum miqdorda moliyaviy mablag‘ni uning qo‘liga tutqazarkan:

– Do‘stim, sen tushkunlikka tushma. Hammasi yaxshi bo‘ladi. Shashtingni so‘ndirma. Omad yor bo‘lsin, – dedi.

Ijodiy faoliyat

1. Xayrli ishlarni amalga oshirish insonga nima beradi?
2. «Yaxshilik qil-u, uni daryoga ot. Bilsa baliq, bilmasa Xoliq», maqolini izohlang.
3. Hikoyada keltirilgan do‘stlarning xatti-harakatiga nima deya olasiz?

Ma’naviyat xazinasidan

Kishi uchun eng foydali va dilni yorishtiruvchi narsa qanoatdir.

Bilasizmi?

Inson va uning qadri doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Insoniy fazilatlar qanchalik mukammal bo‘lsa, atrofdagilarga ijobiy ta’sir etadi va boshqalarda ham bu fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Insonlarni nimalar birlashtiradi? Ularning bir-biriga bo‘lgan mehri va saxovati. Atrofimizdagi odamlar bilan munosabatga kirishishda o‘zgalar oldidagi burch va majburiyatlarimizni ham unutmaslik kerak.

Inson orzu-maqsadining ro‘yobida atrofdagilarning ta’siri kuchli. Insonni yashashga undaydigan, eng qiyin damlarda kuch beradigan insoniy va umuminsoniy xislatlar saqlanib qolishi muhim.

Mulohaza uchun

BOSHINGGA QILICH KELSA HAM YOLG‘ON GAPIRMA

Qadim zamonlarda boshqa shaharga ilm izlab ketayotgan yigitga onasi nasihat qilib: «O‘g‘lim, ilm ol, odamlarga yaxshilik qil. Menga odamlarni hech qachon, har qanday holatda ham aldamaslikka va’da ber», – dedi va choponining ichiga zarurat uchun tangalar tikib berdi. O‘g‘il onaga va’da berib, karvon bilan yo‘lga tushdi.

Sahroda karvonga qaroqchilar to‘dasi hujum qilib, karvondagilarning bor-budini tortib oldi. Qaroqchilardan biri

yigitdan: «Sening nimang bor?!» – deb so‘radi. «Choponimda onam tikib qo‘ygan qirq dona tangam bor», – dedi yigit. Qaroqchi: «U hazillashyapti» deb o‘ylab, nari ketdi. Boshqa qaroqchi ham kelib, shu savolni berdi va yigit unga ham to‘g‘risini aytdi. Tez orada uning atrofini qaroqchilar o‘rab olib, choponni yirtdilar, tilla tangalarni ko‘rib hayratda qoldilar.

INSONLARNI BIRLASHTIRUVCHI UMUMINSONIY AXLOQ QOIDALARI

Oilangiz baxti uchun yashang.
Ahillik, o‘zaro hurmat qoidalariga amal qiling.

Jamoangizni tashlab qo‘ymang.
Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun maqolini esdan chiqarmang.

Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytaring.
Birovga choh qazimang, o‘zingiz tushasiz.

Irodali bo‘ling. Yutqazishdan cho‘chimang, qachondir yutqazganingiz evaziga bugun kattarog‘ini yutib olishingiz mumkin.

Hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan insonlar bilan maslahatlashing.

O‘zgalarning mulkini hurmat qiling.
Bepisandlik, hurmatsizlik, loqaydlik insonning ko‘nglini og‘ritadi.

Resurslardan oqilona foydalaning.
Tejamkorlik – boylik kaliti.

Ma’naviyat xazinasidan

Senga ezgulik ko‘rsatgan kimsaga ezgulik bilan javob qaytargin, chunonchi, ezgulikning mukofoti faqat ezgulikdir.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Yigit qaroqchilarga yonida borini aytmasligi ham mumkin edi-ku. Nega u to‘g‘risini aytdi?
2. Onasiga bergan va’dasidan tashqari, axloqidagi qaysi xislat uni rost so‘zlashga majbur qildi?
3. Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda rostini ayta olarmidingiz?
4. Quyida berilgan qoidalarni kundalik faoliyatingizga singdirishga harakat qiling:

Tildan keladigan ofatlar ko‘p va turli-tuman bo‘lib, ular qalbni g‘amnok qiladi. Jim turish himmatni jamlaydi va fikrni soflaydi.

Kimdir sizga omonat qilib aytgan gapni boshqaga aytmang. Sir saqlashni o‘rganing.

Sabr qilishni odat qiling. Sabr barcha xursandchiliklar kalitidir.

Birovdan ayb qidirmang, o‘zingizni biling.
Kechirimli bo‘ling.

Tejamkor bo‘ling.
Vaqtning qadriga yeting.

10–11-MAVZULAR: BAXTIYOR HAYOTNING USTUNLARI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun sizdan doim odobli va yaxshi bo‘lishingizni talab qilishadi?
2. Odobning baxtli bo‘lish jarayoniga ta’siri bormi?
3. Inson muvaffaqiyatga erishishi uchun odob qoidalarini chetlab o‘tishi mumkinmi?
4. Hayotning mazmunli bo‘lishi uchun qabul qilingan qoidalarga amal qilishning o‘zi yetarli, deb hisoblaysizmi?

Mulohaza uchun

YASHASHNING MA’NOSI NIMA?

Bundan 2300 yil avval yashagan buyuk faylasuf Arastu o‘z hayoti davomida «Insonning yashashdan maqsadi – baxtiyorlik», degan xulosaga kelgan.

Baxtiyor bo‘lish uchun inson axloqli bo‘lishi lozim. «Baxtiyorlik ichimizdadir, – deydi Arastu o‘zining «Axloq» asarida. – Inson uni egallashi uchun yashashdan maqsadini anglamog‘i lozim. Maqsad esa, axloq mezonlari doirasida bo‘lishi darkor.

Demak, odamning baxtga erishishi uning ma’naviy qiyofasiga bog‘liq. Ma’naviy qiyofa esa to‘g‘ri mushohadaning mevasidir. To‘g‘ri mushohada doimo axloqqa tayanadi. Shuning uchun baxtiyor yashashda aqlli bo‘lishning o‘zi yetarli emas, axloq ham muhimdir.

Odamning aqli nafsidan ustun kelsagina mushohada sodir bo‘ladi. Aks holda, insonning ochko‘zligi unga to‘g‘ri fikrlashga xalaqit qiladi. Bilim insonga nafs ustidan g‘olib kelishiga yordam beradi», – deya ta’kidlaydi faylasuf.

Hayot davomida erishganlarimiz – bilim, do‘stlar, salomatlik va boshqa omillar fe’l-atvorimizga ta’sir qiladi, agar ular xulqimizga yaxshi ta’sir qilsa, hayotimizga ma’no kiradi va baxtiyorlikni his qilamiz.



Ijodiy faoliyat

1. O‘qing va jumlalarni to‘ldiring.

a) Baxtga erishish uchun – bilim oling. Sababi: ...

b) Baxtga erishish uchun – o‘zgaring. Sababi: ...

d) Baxtga erishish uchun – sabrli va qat’iyatli bo‘ling. Sababi: ...

e) Baxtga erishish uchun – noxushlikdan saqlaning. Sababi: ...

f) Baxtga erishish uchun – yaxshilik qiling. Sababi: ...

2. «Ma’naviyat xazinasidan» ruknida berilgan Jaloliddin Rumiyning inson haqidagi fikrlarini o‘qing.

Birinchi topshiriqda bildirgan fikrlaringiz bilan umumiylik tomonlari bormi?

Kimdadir quyida berilgan qusurlarning birortasi bor bo‘lsa, ularni bartaraf etish uchun nima qilish kerak? Qanday maslahat berasiz?

a) sababsiz maqtanish;

b) do‘stlaringizga yoki yaqinlaringizga o‘z fikr va harakatingizning o‘zaro bog‘liqligi nuqtayi nazaridan istaklaringizni majburlab o‘tkazish;

d) biror-bir yaxshi ishingiz uchun doimo rag‘bat talab qilish. Tamagirlik;

e) faqat o‘zingizga nafi tegadigan ishlarnigina qilish;

f) «Sendan ugina, mendan bugina» maqsadida do‘stlashish;

g) jamoat ishlariga beparvo bo‘lish.

3. O‘zingizda bunday fe’l-atvor shakllanmasligi uchun nima qilishingiz kerak?

Ma’naviyat xazinasidan



Inson vujudi o‘rmonga o‘xshaydi. Vujudimizda minglab bo‘rilar, to‘ng‘izlar..., yaxshi-yomon, halol-harom sifatlar bor. Ularning qaysi biri ustun bo‘lsa, inson shuning qulidir.

Tanga tarkibida oltin misdan ko‘proq bo‘lsa, bu tanga oltin hisoblanadi. Vujudingda ham shunday – qaysi tabiat ustun bo‘lsa, sen shunga aylanasan. Inson ba’zan bo‘ri bo‘lsa, ba’zi lahzalarda Yusuf-dek xushsurat va xushxulq bo‘ladi. Ko‘ngilda har lahza boshqa bir tuyg‘u bosh ko‘taradi...

Jaloliddin Rumiy

Mulohaza uchun

QO‘SHNIGA YAXSHILIK QILISH

Umar ibn Xattobning o‘g‘li Abdullohning bir boshqa dinga e’tiqod qiluvchi qo‘shnisi bor edi. Abdulloh bir kuni tuya so‘ydi. U kishi xizmatkorlariga: «Qo‘shnimizni unutma», – dedilar va biroz vaqt o‘tib yana: «Qo‘shnimiz Avraam amakini unutmadingmi?» – deb so‘radilar. Xizmatkor: «Taqsir, hozir aytib edingiz. Qo‘shniga go‘sht ajratib qo‘ydik, hozir olib chiqib beramiz», – dedi.

Uch-to‘rt daqiqa o‘tib, Abdulloh xizmatkorni chaqirib, yana so‘radi. Shunda xizmatkor: «Uzr so‘rayman, shu paytgacha sizga itoatsizlik qilgan emasman, bilasiz. Keyin ham qilmayman. Nega qo‘shni uchun buncha qayg‘urasiz?» – deb so‘radi. Abdulloh: «Rasululloh (s.a.v.) menga hamisha qo‘shni ha-qida vasiyat qilar edilarki, men yaqin qo‘shniga ham meros berilsa ke-rak, deb o‘ylardim», deganlarini eshitganman», – dedilar.

Bilasizmi?

Kishining oila a'zolaridan so'ng eng ko'p duch keladigan, muloqot qiladiganlari qo'shnilaridir. Kishining o'zgalarga munosabati qo'shnilarga munosabati orqali shakllanadi. Qo'shnilarni hurmatlashni va ularga yaxshilik qilishni o'rgangan, yomonlikni ravo ko'rmagan kishi boshqalarni ham hurmatlaydi, hech kimga yomonlik qilmaydi. Shuning uchun doimo qo'shnilarga yaxshilik qilish, ularga aziyat yetkazishdan saqlanish, qo'shnichilik odoblariga rioya qilish komillik sari yetaklaydi.

Ijodiy faoliyat

1. Qo'shniga yaxshilik qilish yana nimalarda ifodalanishi mumkin?
2. Quyidagilardan qo'shnichilik haqlarini ajrating. Siz o'zingiz qaysi birini bajara olasiz?

Qo'shni yordam so'rasa yordam berish, qarz so'rasa qarz berish, bemor bo'lsa holini so'rash, qo'shniga biror yaxshilik yetsa tabriklash, biror musibat yetsa ta'ziya bildirib, tasalli berish, qo'shni olamdan o'tsa janozasida qatnashish, u rozi bo'lmasa, uyining devorini uning uyi devoridan baland qilmaslik, tansiq taomlar pishirganda qo'shniga ham ulashish, qo'shni biror joyga ketganda uyi va manzilidan xabardor bo'lish va saqlash, chaqirsa javob berish.

3. Nima uchun mehr-oqibatli odamni baxtli odam deyishadi?
4. Baxtning kaliti yana nimada bo'lishi mumkin? Mehnat tufayli ham baxtga erishish mumkinmi?
5. Baxtsizlik nimada? Inson yoshligini behuda ishlarga sarflab o'tkazishini baxtsizlik deyish mumkinmi?



Bilimingizni mustahkamlang

1. Quyidagi so‘zlar asosida kichik esse yozing: *beminnat yordam, xushmuomala va muloyim bo‘lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, samimiy bo‘lish, yaxshilik ulashish, tama qilmaslik.*
2. Abu Homid G‘azzoliy: *«Ilmning avvali sukut qilish, keyin tinglash, keyin uni yod olish, keyin unga amal qilish, keyin esa tarqatish, so‘ng – boshqalarga o‘rgatishdir. Ilmni faqat qalbi ezgulikka to‘la insonlarga o‘rgatish lozim»*. G‘azzoliyning fikrlaridan xulosa chiqaring va quyidagi savollarga javob bering:
   – baxtiyor hayot uchun bilimli bo‘lish kerakmi?
   – nima uchun ilm olayotgan odam avval sukut saqlashi, so‘ng tinglashi, yod olishi, amal qilishi, keyin esa tarqatishi lozimligi aytilayapti?
   – «Ilmni ... ezgulikka to‘la insonlarga o‘rgatish kerak», deganda nimani tushunasiz?
3. Hikoyani o‘qing va berilgan savollarga javob bering.

Buvimning tug‘ilgan kunini nishonlash uchun oilaviy yig‘ildik. Ayollar oshxonada somsa, turli pishiriqlar bilan ovora bo‘lishsa, erkaklar hovlining bir chetiga qo‘ra qurib, kabob pishirish bilan band bo‘ldilar. Mana hamma narsa tayyor. Lekin shu payt buvim onamga: «Qo‘shni kelin og‘iroyoq, darrov kabob va somsadan chiqarib yuboringlar, dimog‘iga tutuni kirgandir», – deb tayinladilar.

1. Mazkur hikoyada qanday qadriyatlar mavjud?
2. Bu qadriyatlarni kim o‘ylab topgan?
3. Sizning ham mahallangizda shunday odatlar bormi?
4. Mazkur qadriyatlarning jamiyat rivojiga qanday aloqasi bor?
5. Ushbu hikoyaning «Qo‘shniga yaxshilik qilish» hikoyasi bilan qanday o‘xshash joyi bor?

12-MAVZU: HAMMASI O‘Z QO‘LIMIZDA

Ijodiy faoliyat

1. Amaliy mashg‘ulot. Guruhlarda ishlash.

Quyidagi vaziyatlardan birini tanlang. Tanlagan vaziyatdan kelib chiqib, «Tarbiya kompasi»ni chizing. Hayotda kutilmagan voqealar har lahzada sodir bo‘lishi mumkin. Ularning hayotimizga qanday ta’sir qilishini bizning munosabatimiz belgilaydi.



1-vaziyat. Tasavvur qiling, siz yo‘lda ketyapsiz va kutilmaganda oldingizdan pul to‘la hamyon chiqib qoldi. Uni kimdir tushirib yoki unutib qoldirgan. Oldingizda ikki xil tanlov bor: hamyonning egasini topish uchun zarur choralarni ko‘rish yoki uni olib, yo‘lda davom etish. Siz qanday yo‘l tutasiz, nima uchun?

– Hamyonni topib olgan odam uni egasiga yetkazishi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

– Bu vaziyatda eng muhimi nima?

2-vaziyat. Tasavvur qiling, sinfingizga yangi o‘quvchi keldi. Ayrim o‘quvchilar unga qo‘pol muomalada bo‘ldilar.

– Yangi o‘quvchiga qanday yordam bera olasiz?

– Kim bilandir do‘stlashmoqchi bo‘lsangiz, uni qanday sinaysiz? Sinash albatta shart deb o‘ylaysizmi?

2. Mustaqil bajaring.

Oq varaqqa o‘ng kaftingizni qo‘yib, atrofidan qalam bilan yurgizing, har bir barmoqqa bittadan qo‘lingizdan keluvchi xayrli ishlarni yozing. Ularni amalga oshirish rejasini tuzing.

Ma’naviyat xazinasidan

Arazlashib qolgan kishilarni yarashtirib qo’yish savob ishdir. Bir kishini uloviga minishiga yordamlashish yaxshilikdir. Bir kishiga tabassum bilan yaxshi so‘z aytish xayrli ishdir.

Turli davrlarda yashab ijod qilgan donishmandlarning axloq qoidasi haqidagi fikrlari

1. Xitoylik donishmand Konfutsiyning oldiga bir kishi kelib: «Menga butun umr qo‘llanma bo‘luvchi birgina maslahat bering», – dedi. Donishmand: «O‘zingga ravo ko‘rmaganni boshqaga ham ravo ko‘rma», – deb maslahat berdi.
2. Yosh hind yigit donishmand oldiga kelib: «Barcha ilohiy so‘zlar yozilgan kitoblarning ma’nosini oddiy so‘z bilan tushuntirib bering», – deb so‘radi. Donishmand unga: «Senga yomonlik qilishlarini istamasang, sen ham birovga yomonlik istama», – dedi.

Mulohaza uchun

101 NAFAR O‘ZBEK ASKARINING JASORATI

Niderlandiyaning Amersfort shahridagi Lyozdin qabristonida ommaviy bir qabr bor. Bu yerda 101 nafar o‘zbek askarlari dafn qilingan. Har yili 9-aprelda yuzlab niderlandiyaliklar qabr oldida to‘planib, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan bu o‘zbek askarlarini yodga oladilar.

Aksariyati samarqandlik bo‘lgan bu yosh alpqomat yigitlar urushning dastlabki haftalarida Smolensk shahri yaqinida asirga tushib qoladilar. Ularni natsistlar tomonidan bosib olingan Niderlandiyaga jo‘natishadi. Osiyolik bo‘lgan bu askarlar natsistlarning nazdida madaniyatsiz, «varvar va yovvoyi»lar edi. Shuning uchun ham ularni boshqa asirlardan ajratib, simtikan bilan o‘ralgan, usti ochiq qafasda uch kun saqlashadi.

Lagerga issiq nonlar taxlangan mashina kelib to‘xtadi. Nonning yoqimli hididan saf tortib turgan natsist soldatlari ham yutinib qo‘ydilar.

Fashistlar o‘z g‘oyalariga qarshilik qilayotgan niderlandlarni qo‘rquvga solish uchun maxsus film ishlashni reja qilishgan edi. Unga ko‘ra, bu «madaniyatsiz, yovvoyi»lar ovqat uchun bir-birining go‘shtini pora-pora qilishlari kerak edi. Bu orqali: «Qaranglar, bizga qarshi kurashganlarni nima kutadi?» – demoqchi bo‘lishgan.

Germaniyaning eng zo‘r kinooperatorlari yoqilgan kameralarini asirlarga qaratib shay turishar edi. Nihoyat, harbiy asirlarning oldiga non tashlanadi.

Asirlar och bo‘lsalar-da, nonga o‘zini otmadi. Ular orasidagi eng yoshi borib nonni qo‘liga oldi. Peshonasiga surtib o‘pdi va nonni yoshi katta asirga uzatdi. Qolgan asirlar chordona qurib o‘tirishdi. Yoshi katta asir shoshmasdan nonni qoshiq bilan 101 bo‘lakka bo‘lib uzatdi. Asirlar non bo‘laklarini eng orqa qatorda o‘tirganlarga qo‘lma-qo‘l uzata boshladilar. 101 askar nonni xotirjamlik bilan chaynab-chaynab yutishdi. Ularning og‘zidan chiqqan «Xudoga shukr», degan so‘z bu voqeaning eng yuqori nuqtasi bo‘ldi.

O‘zbek askarlari bilan sodir bo‘lgan voqea mamlakat bo‘ylab tez tarqaladi. Uni eshitgan mahalliy aholining ruhi ko‘tarilib, vatanparvarligi jo‘shib ketadi. «Non voqeasi» sahnasi kutilgan natijani bermagach, o‘zbek yigitlari qiynoqda saqlanadi, og‘ir ishlarga jalb qilinadi. Ularga tibbiy yordam ko‘rsatish man qilinadi. Oqibatda, 24 o‘zbek askari vafot etadi. 77 nafari esa qatl etiladi. Ham ruhan, ham jismonan og‘ir qiynoqlarga solinsa-da, mag‘rur boshini dushman poyiga qo‘ymagan, oxirgi nafasigacha bir-birini suyagan o‘zbek askarlarining matonati golland xalqining hurmat-ehtiromini qozondi. 101 nafar o‘zbekistonlik askarlarga alohida hurmat ko‘rsatilib, 9-aprel kuni Xotira marosimi sifatida belgilandi.

Bilimingizni mustahkamlang

1. 101 nafar o‘zbek harbiy asirlari qanday qilib fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shdi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, nima uchun hech kim nonga tashlanmadi?
3. O‘zbeklardagi qaysi insoniy fazilatlar mahalliy aholining ruhini ko‘tarib, vatanparvarligini mustahkamladi?

13-MAVZU: INSON UMRI ...

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inson hayoti va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi qanday omillar bor, sanab bering.
2. Inson qanday yo‘llar bilan o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazib qo‘yishi mumkin?
3. Giyohvand modda va tamaki mahsulotlarining inson salomatligidagi salbiy oqibatlarini tasavvur eta olasizmi?
4. Ota-bobolarimiz tomonidan aytilgan tirik jonga ozor bermaslik haqidagi maqol va hikmatlarni eslang.

Mulohaza uchun

Har bir din o‘z ta’limotida zo‘ravonlik, shafqatsizlik, o‘ziga va o‘zgalar joniga qasd qilish, tinch aholiga zulm yetkazish va qon to‘kishni qat’iyan taqiqlaydi.

Buddaviylikda o‘z joniga qasd qilish insonning hayotga nisbatan qilgan noshukurligi sifatida baholanadi.

Xristianlik dinining *pravoslav* yo‘nalishida o‘z joniga qasd qilish og‘ir gunohlardan sanaladi. Mazkur ishga qo‘l urgan kishining dafn marosimida marsiya (otpevaniye) o‘qilmaydi. Agar o‘z joniga qasd qiluvchining aqli noraso bo‘lsa, bundan mustasno. Bu din vakillari o‘z joniga qasd qilganlarni «nopoklar» deb ataganlar. Bunday kishilarning ruhi tiriklarga ozor beradi, balo keltiradi, azobga qo‘yadi, deb ishonganlar.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, hayot ne’mati insonga Alloh tomonidan beriladi. Bu ne’matning qadriga yetish, har soat, har daqiqada xayrli va savobli ishlarni qilish talab etiladi.

Ijodiy faoliyat

1. Rasmlardagi narsalarga nima uchun taqiq belgisi qo‘yilgan?
2. Ularning inson salomatligiga qanday salbiy ta’siri bor?
3. Fikrni davom ettiring:
   - Tibbiy madaniyat bu – ...
   - Sog‘lig‘iga zarar bo‘ladigan ishlarni bajarish ...
   - Salomatlikka e’tibor bermaslik ...
   - Tibbiy madaniyatga rioya qilmaslik ...
4. Ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalikni o‘z joniga qasd qilish deb atash mumkinmi?
5. Sizning gigiyena qoidalariga rioya qilishingiz atrofingizdagilarga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin? Salbiy ta’sirlarni oldini olish uchun qanday qoidalarga amal qilasiz? Gigiyena qoidalari ro‘yxatini tuzing.
6. Akmal qattiq tumov bo‘lib qoldi. Maktabga kelganida maktab hamshirasi unga niqob taqish lozimligini aytib, tezda shifokorga ko‘rinishi zarurligini ta’kidladi. Akmal bu gapga e’tiborsizlik qildi. Natijada, hafta davomida isitmalab uydan chiqa olmadi. Akmal qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi va uning oqibati nimaga olib keldi?

Bilasizmi?

Ayni kunda sayyoramizda 1,1 milliard nafar kashanda bor. Har yili ularning 6 million nafari kasalliklarga chalinib, hayotdan ko‘z yumadi. Tamaki tarkibidagi 400 turdagi zaharli unsurlar o‘pka sili, og‘iz va tomoq bo‘shlig‘idagi hujayra to‘qimalarining zararlanishi, tishlarning sarg‘ayishi, ko‘z nurining yo‘qolishi, yurak-qon tomirlarining torayishi, oshqozon-ichak saratoniga sabab bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat

1. Rasmlarga izoh yozing.
2. Inson salomatligiga chekish zarar ekanligini anglashi uchun rasmdagi zinaning eng oxirgi pog‘onasigacha chiqishi shartmi?

UMRINGNI TUTATMA!



Ma’naviyat xazinasidan

Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar barcha amallarinda kamchilik qilurlar.

Abdulla Avloniy

Mulohaza uchun

Til, lab, boshqa og‘iz bo‘shlig‘i organlari, halqum, o‘pka saratoni bilan kasallanish hollarining 80 foizi chekishning oqibatida yuzaga keladi. Masalan, nosvoy iste’mol qilgan odam turli oshqozon infeksiyalari, virusli gepatit kabi kasalliklarni yuqtirib olishi mumkin.

Nos tarkibidagi asosiy ta’sir qiluvchi modda tamaki bo‘lgani uchun uni chekuvchilar nikotinga o‘rganib qolishadi.

Uning tarkibiga qo‘shiladigan kimyoviy moddalar og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chekuvchilarda nafaqat nikotin, balki boshqa kimyoviy moddalarga ham kuchli bog‘liqlik shakllanishi mumkin.

Chekish o‘smirlarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi: zehni pasayadi, xotira yomonlashadi.

Ijodiy faoliyat

Yuqoridagi matnlar asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping va gaplarni daftaringizga yozing:

1. Nosvoy iste’mol qilgan odam ... ... infeksiyalari, virusli ... kabi ... yuqtirib olishi mumkin.
2. Nos tarkibiga ... ... moddalar ... bo‘shlig‘i ... pardasiga ... ta’sir ko‘rsatadi.
3. Nosvoy kuchli ... bog‘liqlikni keltirib chiqaradi.
4. Nos chekish o‘smirlarning ... rivojlanishiga ... ta’sir ko‘rsatadi: ... pasayadi, ... yomonlashadi.

Ma’naviyat xazinasidan

O‘z qo‘llaringiz bilan o‘zingizni halokatga yetkazuvchi bo‘lmang!

Bilimingizni mustahkamlang

1. Rasmdagi moddalarning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganing.
2. O‘rgangan ma’lumotlaringizga tayanib, «Sog‘lom turmush tarzi mening nigohimda» nomli esse yozing.



14-MAVZU: OGOHLIK

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ogohlik nimadan boshlanadi, deb o‘ylaysiz?
2. AQSh, Malayziya, Germaniya, Indoneziya, Janubiy Koreya, Hindiston, umuman, Yevropa va Osiyoning eng yirik shaharlari mehmonxonalariga borsangiz: «*Hurmatli mehmon! Siz mehmonxonamizdan 200 metr radiusdan uzoqlashmang. Mabodo uzoqqa ketib qolsangiz, mehmonxona ma’muriyati sizning hayotingiz, sog‘lig‘ingiz, mol-mulkingiz daxlsizligiga kafolat bermaydi*», – deb ogohlantirishadi. Nima uchun shunday deyishadi, deb o‘ylaysiz?
3. Mahallangizda shubhali notanish kishi paydo bo‘ldi. Siz uni bir hafta ichida tez-tez uchratdingiz. Qanday yo‘l tutasiz?
4. Bozorga kiraverishda egasi yo‘q yelim xalta turibdi. Sizning harakatingiz...

Ma’naviyat xazinasidan

O‘g‘ridan qo‘rqma, nari borsa molingni olar, qotildan qo‘rqma, nari borsa joningni olar. Ammo befarq, loqayddan qo‘rq, chunki u ikkisiga yo‘l qo‘yib berar.

Jaloliddin Rumiy

Mulohaza uchun

BESH NARSANI BESH NARSADAN AVVAL G‘ANIMAT BILING:

– bemor bo‘lishdan avval sog‘liqni;
– keksalikdan avval yoshlikni;
– faqirlikdan avval boylikni;
– mashg‘ul bo‘lib qolishdan avval xotirjamlikni;
– o‘limdan avval hayotni g‘animat bil.

Ma’naviyat xazinasidan

O‘zining kim ekanligini anglab yetmaydigan, bugunning huzur-halovati bilan yashab, ertasi haqida qayg‘urmaydiganlar haqida qalblari bor, lekin anglamaydilar, ko‘zlari bor, ko‘rmaydilar, quloqlari bor, eshitmaydilar deyiladi. Bunday insonlar g‘aflat uyqusidagilar, deb ataladi.

Ijodiy faoliyat

1. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib, gaplarni to‘ldiring. Fikringizni izohlang.
   – Befarqlik, g‘aflat har bir ... ning boshidir, deganda nimani tushunasiz?
   – Agar dehqon g‘aflatda qolsa, ...
   – Cho‘pon g‘aflatda qolsa, ... ,
   – Agar soqchi g‘aflatda qolsa, ...
   – Ilm egalari g‘aflatda qolsa, ...
2. Nimalarni g‘animat bilish, ogoh bo‘lish, nimalardan g‘aflatda qolmaslikni tavsiya etasiz?

Mulohaza uchun

KO‘RINMAS QARMOQ

Lolaning tug‘ilgan kuniga otasi zamonaviy smartfon sovg‘a qildi. O‘sha kuniyoq Lola maktabga telefon bilan keldi. Sinfdoshlariga maqtandi. U ijtimoiy tarmoqdagi ko‘ngilochar o‘yinlar o‘tkazadigan guruhga qo‘shilib qolganini sezmadi ham.

O‘yinda guruh boshlig‘i unga kuni bilan eshitib yurishi uchun bir nechta musiqalarni yubordi. Musiqalar og‘ir, qayg‘uli edi. Musiqalardan tushkunlikka tushgan Lolaga tomosha qilish uchun bir nechta filmlar yuborildi. Lola tungi ikkigacha qo‘rqinchli sahnalardan iborat filmlarni ko‘rdi. Bu hol o‘n kuncha davom

etdi. Avvaliga u o‘zini qiziq o‘yin o‘ynayotgandek his qildi, keyin esa o‘zgarib qoldi: kamgap, xafaqon va hafsalasiz qizga aylandi. O‘yin uni tobora domiga tortar edi.

«Ertalab 4:00 da uyg‘onib, mening topshirig‘imni kut», – degan xabar oldi. Ertalab esa unga: «Uyning tomiga chiq. So‘ng yo‘lga chiqib, katta tezlikda kelayotgan mashina oldidan yo‘lni kesib o‘t. Bularning barchasini tasvirga ol va tasvirlarni jo‘nat», – degan dahshatli topshiriq keldi. Lolaning qo‘l-oyoqlari bo‘shashib ketdi, uyqu aralash tomga chiqish uchun eshik oldiga keldi.

Lolaning onasi qizidagi o‘zgarishlarni payqagan va undan ko‘z-quloq bo‘lib yurardi. O‘sha tun ham onaning ko‘ziga uyqu kelmadi. Erta tongda ko‘cha eshigining ochilgan ovozini eshitishi bilan o‘rnidan sakrab turdi. Lola bir qo‘lida smartfonini, bir qo‘lida eshik dastagini ushlagancha qaltirar edi. Ona qizini mahkam bag‘riga bosdi.

O‘sha kuni Lola maktabga qo‘l telefonisiz keldi.



Ijodiy faoliyat

1. Onasi to‘xtatib qolmaganida, Lolaning keyingi taqdiri nima bo‘lar edi?
2. Lolaning xatosi nimada?
3. Internetdan foydalanishda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?

Bilasizmi?

Ogohlik – atrofdagi narsalarga o‘ta e’tiborli, sinchkov munosabat; voqea-hodisalar, narsalar, odamlar, ularning so‘zlari, xulqiga diqqat bilan qarash; atrofdagi har bir yangilikni tahlil qilish, internet, televideniye, radio, gazeta, kishilarning kundalik hayotidagi xatti-harakatlari, gaplari, fikrlarini qayta tasavvuridan o‘tkazib, taqqoslash va shu asosda o‘z xatti-harakatini belgilay olishidir.

Mas’uliyatni o‘zida shakllantira olgan insongina hayotda hushyor va ogoh yashay oladi, qo‘ni-qo‘shni, do‘st-birodar hamda qarindoshlar holidan doimo xabardor bo‘lib turadi. Ogohlik va hushyorlik bor joyda turli balo-ofatlar chekinadi. Sezgirlik, sergaklik hayotimiz mezoniga aylangan taqdirdagina har qanday xavf-xatarni to‘xtatishimiz, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

15–16-MAVZULAR: KO‘ZGA KO‘RINMAS XATARLAR

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar» deganda nimalarni tushunasiz?
2. Siz internet tarmog‘idagi qaysi saytlardan muntazam foydalanasiz?
3. Internet orqali yuzaga chiqadigan tahdidlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Mulohaza uchun

Biz yashayotgan davr «Internet asri» deb atalmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo aholisining 4,1 milliardi internet tarmog‘idan foydalanadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich taxminan 12,2 millionni tashkil etadi.

Internetning foydali jihatlari ko‘p. Afsuski, g‘araz niyatli insonlarning qo‘lida internet buzg‘unchilik, jaholat, axloqsizlikni tarqatish quroliga aylanmoqda.

Foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham internetdagi tahdidlar bolalar va o‘smirlarga qaratilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzidagi o‘smirlarning 42 foizini axloqsizlik, 38 foizini zo‘ravonlik, 26 foizini millatchilik va ayirmachilik kabi tahdidlarni targ‘ib qiluvchi veb-sahifalardan foydalanuvchilar tashkil qilmoqda.

Internet tarmog‘idan turli ekstremistik, terroristik, missionerlik bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar ham foydalanadilar. Bunday internet saytlari to‘satdan paydo bo‘ladi. Xususan, ular mazmunini o‘zgartirmagan holda, nomini tez-tez yangilab turadi.

Ijodiy faoliyat

1. Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil messenjerlardan foydalanayotganda qanday qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi?
2. Jamoangiz bilan internetdan foydalanish chog‘ida firibgar va yovuz maqsadli insonlardan himoyalanish yo‘llarini muhokama qiling.
3. Partadoshingiz bilan muhokama qilib, jadvaldagi savollarga javob bering:

1	Oilangiz uchun kompyuter nima vazifani bajaradi?	
2	Internet sizga nima beradi? Internetdan hech tahdid sezganmisiz? Misol keltiring.	
3	Siz foydalanayotgan saytlarni ota-onangiz doim nazorat qilishadimi?	
4	Internet yo‘q, deb faraz qiling, buning o‘rniga qanday muqobil taklif bergan bo‘lar edingiz?	
5	Nima uchun hozirgi davrda axborot xavfsizligi mavzusi dolzarb bo‘lib qolmoqda?	
6	Internetning qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor? Sanab bering.	

Bilasizmi?

Bugungi kunda insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning ongi va qalbini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir.

Ijodiy faoliyat

Berilgan savollarga javob bering. Fikringizni asoslang.

1. Internet tarmog‘ida kimlar bilan aloqaga kirishmagan ma’qul?
2. Shaxsiy axborot nima?
3. Internetdagi shaxsiy sahifaga qanday ma’lumotlarni joylashtirish mumkin?

Mulohaza uchun

MOBIL VOSITALARNING AFZALLIKLARI

1. Bugungi kunda insonlar o‘rtasidagi muloqotlar asosan qo‘ng‘iroqlar va SMS orqali amalga oshirilmoqda. Bu juda qulay, foydali, tezkor va hech qanday muammo tug‘dirmaydi.
2. Dunyo aholisining 55–60 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Ular bir-birlariga yozadilar, suratlarni ko‘radilar, suhbatlashadilar va jonli muloqot qiladilar.
3. Farzandlarning ota-ona va yaqinlari bilan bevosita muloqoti mavjudligi orqali ularning xavfsizligi ta’minlanadi.
4. Telefonda juda ko‘p foydali narsalar (soat, sekundomer, taymer, kalkulator, kamera va boshqalar) mavjud: siz har qanday muhim daqiqalarni saqlab olishingiz mumkin.

MOBIL TELEFONLARNING ZARARI

1. Telefondan chiqadigan nurlanish inson salomatligiga katta zarar yetkazadi. Har qanday holatda telefonni chaqaloqlar va yosh bolalarga yaqin tutmaslik kerak. Ular uchun bu juda xavflidir. Negaki, miya hujayralari, ko‘rish, eshitish va boshqa organlarga zarar yetkazadi.

2. Asab va reproduktiv tizimlarga salbiy ta’sir qiladi. Bu nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham tegishlidir.

3. Telefon qo‘ng‘iroqlari va xabarlarini eshitish uchun odamlar uyali telefonlarini yotoqxonaga qo‘yadilar. Telefondagi radio-to‘lqinlarning taralishi inson uyqusiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Maktab o‘quvchilarining telefonga bog‘lanib qolishi agressiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va unga qaramlikni kuchaytiradi.

Mobil telefonlarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun siz quyidagi qoidalarga rioya qiling:

Bilasizmi?

UMR MAZMUNI BILAN O‘LCHANADI

XXI asrda axborot texnologiyalari sanoatining asoschilaridan biri Stiv Jobs zamonaviy kompyuter va qo‘l telefonlarini rivojlantirgan tadbirkor edi. U maktabda o‘qishga ishtiyoqi baland, qiziquvchan bo‘lgan. Uyidagi omborxonada mexanika va elektronikani o‘rganib, yangilik yaratish uning sevimli mashg‘uloti edi. Keyinchalik ilk zamonaviy kompyuterlar shu yerda yaratilgan.

1974-yili Stiv Jobs videoo‘yin va kompyuter ishlab chiqaruvchi kompaniyada ish boshlagan. Tajribasini oshirib, 21 yoshida «Apple» korporatsiyasiga asos solgan. Stiv Jobsdagi ixtirochilik, tinimsiz o‘rganish va yangilikka intilish kichkina, ammo kuchli texnologiyalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Mulohaza uchun

DUNYOGA MASHHURLIK

Xalqaro telekanal boshlovchisi Al-Xorazmiyga bag‘ishlangan hujjatli film yakunida: «Bugun biz qayerda va qachon bo‘lishimizdan qat’i nazar, kofe yoki choy ustida xohlagan kishimiz bilan internetda erkin muloqot qilganimizda, veb-sahifalarni kuzatayotganimizda, chegaralanmagan hajmdagi axborotlarni saqlamoqchi bo‘lganimizda barcha yangi xaytek texnologiyalarining rivojida o‘chmas iz qoldirgan Markaziy osiyolik Al-Xorazmiy turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak va xayolan undan minnatdor bo‘lishimiz shart», – deya xulosa qildi.

Ma’naviyat xazinasidan

Al-Xorazmiy faqatgina o‘z davrining buyuk matematigi emas, balki butun insoniyat tarixidagi buyuk matematikdir.

G. Sarton, tarixchi va kimyogar olim

Bilimingizni mustahkamlang

1. O‘ylab ko‘ring. 30 yil avval siz kabi tengqurlaringiz bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazishgan?

2. Vazifa. Ota-onangiz bilan birgalikda quyidagi savollarga javob izlang va daftaringizga javoblar asosida tuzilgan matnni yozing:

1. Smartfon va kompyuter bo‘lmagan davrning hozirgi kunlar bilan farqi nimada? Texnika asrining afzallik va salbiy tomonlarini ayting. Fikringizni asoslang.
2. Stiv Jobsdagi qaysi xususiyatlar uning muvaffaqiyatga erishishiga yordam berdi?
3. Bugungi zamonaviy texnologiyalar turmushimizning yuksalishiga qanday xizmat qilmoqda?

17–18-MAVZULAR: «MEN QANDAY INSONMAN?»

Ijodiy faoliyat

1. Rasmlarga diqqat bilan qarang. Ularning o‘ng va chap tomonlarini bir-biriga moslang.



2. Yuqoridagi kamchilik va qusurlardan xalos bo‘lsangiz, sizda qanday go‘zal fazilatlar shakllanadi?

Yomon odatni yaxshisiga almashtiramiz

1. Bu oyda men o‘zimdagi ... qusuridan xalos bo‘lmoqchiman.
2. Bu illat menda ... tufayli paydo bo‘lgan. Chunki men ...
3. Buning o‘rniga men ... qilmoqchiman.
4. Natijada, men ... imkoniga ega bo‘laman.
5. Yaxshi natijaga erishgach, men o‘zimning ...

Ijodiy faoliyat

«MEN QANDAY INSONMAN?» TRENING MASHG‘ULOTINI O‘TKAZISHGA DOIR KO‘RSATMALAR

Boshlovchi: Ko‘pincha boshqalarga savol berishni yaxshi ko‘ramiz. Bu savollar turli xil mazmunda bo‘lishi mumkin, lekin o‘zimizga o‘zimiz kamdan kam murojaat qilamiz. Bugungi mashg‘ulotda **«Men qanday insonman?»** degan savolga javob beramiz. *(Javoblar imkon qadar to‘liq berilishi kerak, zero, ularni sizdan boshqa hech kim ko‘rmaydi.)*

Mana shu tarzda o‘ndan ortiq javob to‘planadi. Bu javoblar o‘zingizdagi kamchiliklarni tuzatishingizga yordam beradi.

O‘zimizni jamiyatda to‘g‘ri tutishimizda faqatgina o‘rganish, odatlanish emas, balki odob qoidalarini o‘zlashtirish, xarakterning ma’lum qirralarini shakllantirishga intilishimiz muhim.

O‘z ustida ishlash, odatlar va xarakter haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Odobli, tarbiyali va madaniyatli bo‘lishimizga to‘sqinlik qiluvchi xarakter qirralarini aniqlashga urinib ko‘ramiz.

Oq qog‘oz olamiz va quyidagi savollarga javob beramiz:

1. Mening asosiy yutuq va kamchiliklarim nimadan iborat?

2. Oilam (ota-onam, aka-ukalarim, opa-singillarim, yaqinlarim) menga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. O‘zingizni quyidagi vaziyatlarda sinab ko‘ra olasizmi?

Keksa odamga mayin tabassum bilan yukini manziliga olib borishga yordam berish, saldan keyin esa notanish ikki ayolni turtib o‘tib, navbatsiz bilet olishga urinish.

Bu xo‘jako‘rsinga ish qilish – foydasi bor joyda o‘zini madaniyatli qilib ko‘rsatish yoki riyo deyiladi.

Aslida, chinakam muloyimlik bayramona libos emas, kundalik kiyim-bosh – u haftaning har kunida orasta va chiroyli bo‘lishi kerak.

Riyokor kishilar atrofdagilar nazarida olijanob va tarbiyali bo‘lib ko‘rinishga urinadi, aslida esa baqiradi, eshikni qarsillatib yopadi va sh.k.

4. Bu yerda qanday xarakter qirralari namoyon bo‘ladi?

Uyga qaytgach, kiyimlaringizni almashtirmasdan, muzlatkichdan yoki stoldan birinchi duch kelgan yegulikni olasiz, ovqatni kosaga suzmasdan, qozonning o‘zidan yeyishni boshlaysiz. To‘ygach, og‘zingizni yengingizga artasiz va mamnun bo‘lib, divanga yonboshlaysiz.

5. Nima deb o‘ylaysiz, mehmonda o‘zingizni qanday tutasiz?

Pichoq va sanchqilar qo‘lingizdan «sakrab», polga tushadi; og‘zingizni ko‘ylagingiz yengiga artasiz.

Agar har kuni uyda tartib bilan pichoq va sanchqi, qo‘l sochiqlardan to‘g‘ri foydalanilsa, shunga odatlaniladi.

Xulq-atvor qoidalarini tahlil etishga doir hayotiy vaziyatlar:

1-vaziyat.

Mahallada o‘g‘il bolalar maqsadsiz to‘planishni odat qildilar. Z. ismli 15 yoshli bola barcha fanlardan yaxshi baholarga o‘qir va namunali xulqli o‘quvchi edi. Vaqtini bekor o‘tkazishi oqibatida uyiga kech qaytadigan, ota-onasiga qo‘pol muomalada bo‘ladigan, tengdoshlari bilan janjallashadigan bo‘lib qoldi.

2-vaziyat.

Gazeta tahririyatiga kelgan xatdan:

«…O‘shanda Umida yettinchi sinfda o‘qir edi. Xolamning tug‘ilgan kuniga borish uchun kiyina boshladik. Tilla zanjirimni topolmay qoldim:

– Umida, mening tilla zanjirimni ko‘rmadingmi?

U birdan ko‘zini olib qochdi. Yuragim bir nimani sezgandek yana savolga tutdim:

– Menga qara, biror joyga qo‘ygan bo‘lsang, ayt.

U indamadi. Shundan bildimki, nimadir qilgan. Sekin ko‘ngliga yo‘l topa boshladim:

– Yaxshilab esla, uni senga bermoqchi edim. Bugun tug‘ilgan kunga taqib borar eding.

Qizimning ko‘zlari chaqnadi:

– Oyi, rostdanmi? Men… – negadir yana birdan xomush tortdi. – Menga ko‘-o‘p pul bersangiz olib kelaman. O‘zimda ham bor, pul…

U sumkasini izlashga tushdi. Keyin bir dasta pul chiqardi:

– Men zanjiringizni sotdim. Yuring, pulini berib, zanjirni olib kelamiz…».

1. Har bir vaziyatga o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Bunday vaziyatlarning oldini olish mumkinmi? Qanday taklif bildirasiz?

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o‘rin egallaydi

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi – «Avesto» kitobida ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal insoniy fazilat sifatida ulug‘lanadi. Islom ta’limotida boshqalarga, ayniqsa, ota-ona, ayollar, yosh bolalarga yaxshilik qilish juda qadrlanadi.

Tilak bildirish va taskin berish: Inson hayotining barcha fasllarida, har xil yosh va munosabatlar sababli bir-biriga tilak bildiradi, yaxshi niyat qiladi.

Safarga otlanayotganlarga: «Safaringiz bexatar bo‘lsin, eson-omon yana diydor ko‘rishaylik»; «Oy borib, omon qayting», degan tilaklar bildiriladi.

Safar va ziyoratdan qaytganlarga: «Ziyoratlar qabul bo‘lsin» degan niyat bildiriladi. Bunga javoban safardan qaytgan shaxs «Murodingiz hosil bo‘lsin» deya minnatdorchilik bildiradi.

Bemorni ko‘rgani kunduz kuni borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, unga: «Tuzalib qoldingizmi, ko‘rinishingiz yaxshi», «Sog‘ayib keting», – deb; xayrlashayotib esa, «Yaxshilikda uchrashaylik» kabi gaplar aytiladi.

Biror kishi yangi libos kiyganida, uy-joyli, mol-mulkli bo‘lganida «Qulluq bo‘lsin, muborak bo‘lsin, nasib etsin, to‘ylar qiling, yarashibdi, buyursin» kabi so‘z va iboralar qo‘llaniladi.

Ijodiy faoliyat

SO‘NGGI PUSHAYMON...

Kechqurun qo‘shnining hovlisidan shovqin eshitildi. Bunday holat tez-tez bo‘lib turardi. Ammo bu galgisi har doimgidan ham qattiqroq bo‘ldi.

Kenja o‘g‘il mast holda kelib, jazavaga tushdi. Uni to‘xtatmoqchi bo‘lgan keksa otasini zinapoyadan turtib yubordi. Ota to‘shakka mixlanib qoldi.

1. Bu hodisaning mavzuga bog‘liqlik tomoni bormi?
2. Bu holatning oldini olish mumkinmidi?
3. Bunday voqealarning sodir bo‘lishida qo‘ni-qo‘shnilar ham aybdor. Bu fikrga qo‘shilasizmi? Javobingizni asoslang.

Ma’naviyat xazinasidan

Kichik muammoga hech kim e’tibor qilmasa, u kun kelib hammaning katta muammosiga aylanadi.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Umumiy axloq qoidalariga hayotiy misollar keltiring. Ezgu fazilatlar aks etgan dialog tuzing.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning xulq-atvor qoidalari bilan bog‘liq tomonlari bormi?
3. Mamlakatimizning Asosiy Qonunida aks etgan milliy va umum-insoniy qadriyatlarimizni mavzu bilan bog‘lang.

19-MAVZU: MUOMALA UCHUN ZARUR ODOBLAR

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Go‘zal muomala deganda nima nazarda tutiladi?
2. Siz muomala odobiga amal qilasizmi?
3. Anvar Adhamdan navbatchilikka yordamlashib yuborishni so‘radi. Adham esa qo‘pol tarzda: «Kerak bo‘lsa, o‘zing bajar! Men sendan qarzdor emasman», deya javob qildi. Adhamning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
4. Mahallada Sergeyning o‘zbek tilida so‘zlashadigan o‘rtoqlari ko‘p. Do‘sti Akmal Sergeyni: «Sening gapingga umuman tushunmayman», deb jerkiydi. Mazkur vaziyatni izohlang.

Mulohaza uchun

BEGONA MEHMONLAR

1932-yil. Bog‘imizning obod bo‘lgan, ayni pishiqchilik kezlari edi. Bir kuni kechki payt uyimizga mehmon keldi. Er o‘ttiz besh, ayol o‘ttiz yoshlarda, ikkovlari ham ovro‘pacha kiyingan. Bo‘ychan, chiroyli oppoq yuzli ayolning egnidagi qo‘sh etakli uzun oq ko‘ylagi o‘ziga juda yarashgandi. Ular uyimizga birinchi bor kelishlari edi.

Dadam ularni shiypon hovlisiga, stullarga o‘tqizdilar. Tanishish, o‘zaro suhbat boshlandi. Chiroyli ayol erkaklar suhbatiga biroz quloq solib o‘tirgach, asta turib shiyponimizni tomosha qildi va ichkari hovliga o‘tib, uy, oilamiz bilan tanishdi. Oyim non yopayotgan edilar. Mehmonni supaga taklif qildilar, tandirdan non uzib, xontaxtaga qo‘ydilar. Biroq ayol o‘tirmadi, ushatilgan nondan ham yemadi va hatto ikki og‘iz iliq so‘z ham aytmadi. Qo‘lidagi yelpig‘ichni o‘ynab, indamay shiyponga qaytdi va suhbatlari tugagan eri bilan tezgina jo‘nab ketdilar. Kechqurun oyim dadamdan:

– Kelgan mehmonlar kim ekan? – deb so‘radilar.

– Bilmadim, «Julqunboy bilan bir tanishib, uyini ko‘rib o‘taylik», deb kelishibdi chog‘i, – dedilar dadam kulib va sho‘rvaga non to‘g‘rab, ilova qildilar:

– Maorif komissarligida ishlashadi, chamasi.

– Xotini juda dimog‘dor ko‘rinadi, – dedilar oyim.

Dadam darhol javob qilmay, to‘g‘ralgan non ustiga murchli piyoz sochdilar va qoshiqlab yer ekanlar:

– To‘rt narsa kishini kibr-havolantirar ekan: boylik, ilm, martaba va husn, – dedilar.

Dadamning ushbu so‘zlari xotiramda hamon saqlanib qolgan. Kibr-u havo dardiga yo‘liqqan biror kimsani uchratsam, darhol shu xotiralarni qayta-qayta eslayman.

Habibulla Qodiriy

Ijodiy faoliyat

1. Mehmon ayol nima sababdan mezbonga dimog‘dor bo‘lib ko‘rindi?
2. Siz mehmon ayolning xatti-harakatini qanday izohlaysiz?
3. Boylik, bilim, martaba va husn nima sababdan insonni kibrli qilib qo‘yadi?
4. Qanday insonlar boylik, bilim, martaba va husnga ega bo‘lsalar ham kibrga berilmaydilar?

Ma’naviyat xazinasidan

Bir donishmandga:

– Qanday odam mukammal odam? – deb savol berishibdi.

– Imoni mustahkam odam – mukammaldir, – deb javob beribdi donishmand.

– Odamdagi imon mustahkamligini qayerdan bilish mumkin?

– Undagi tavozelik, halimlik, saxiylik va chiroyli xulqdan bilish mumkin. Bu fazilatlar insonni hurmatga sazovor qiladi, oliy darajalarga erishtiradi.

– Sizning-cha, insonning go‘zalligi uning ko‘rinishidami, o‘zini tutishidami yoki uning gap-so‘zida? – deya so‘rashganida:

– Inson gap-so‘zi va odobi bilan xushsuratdir. Muomala – insoniylikka xos yuksak xususiyat hisoblanadi, – deb javob beribdi donishmand.

Ijodiy faoliyat

Ushbu so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatishga odatlaning:

– Xush kelibsiz;
– Xush ko‘rdik;
– Yaxshi boring;
– Yaxshi qoling;
– Yaxshilikka buyursin;
– Xayrli tong;
– Xayrli tun;

– Yaxshi yotib turing;
– Shirin tushlar ko‘ring;
– Yoqimli ishtaha;
– Yaxshi kunlaringizga yarasin;
– Yaxshi kunlarda ko‘rishaylik;
– Yaxshiliklaringizga qaytaray;
– Ko‘z tegmasin;
– Baraka toping;
– Uyingizga bug‘doy to‘lsin;
– Yaxshi niyatlaringiz o‘zingizga hamroh bo‘lsin;
– Topganingiz to‘yga buyursin;
– Fayz-barakangizni bersin;
– Umringiz uzoq bo‘lsin;
– O‘ylagan niyatlaringizga yetib yuring.

Bilimingizni mustahkamlang

O‘zbek xalq maqollarini tahlil qiling:
1. «Yaxshi nutq asaldan shirinroq».
2. «Pichoqdan emas, balki tildan qo‘rqing».
3. «Til suyaksiz, ammo odamlarning suyaklarini maydalaydi».

20-MAVZU: KOMMUNIKATIVLIK – MUVAFFAQIYAT KALITI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yangi jamoa bilan tez kirishib keta olasizmi?
2. Jamoada inson qanday odob-axloq me'yorlariga amal qilishi zarur, deb o'ylaysiz?
3. Jamoangiz musobaqada g'olib bo'lishini xohlaysiz. Tanlovda javobni bilsangiz-da: «Noto'g'ri aytsam, ustimdan kulishmasmikan?» – deb o'yladingiz. Shunday vaziyatga tushganmisiz? To'g'ri qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish uchun nimalar qilish kerak, deb o'ylaysiz?

Bilasizmi?

Kommunikativlik – to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati; insonlar bilan yaqinlasha olish, samarali o'zaro munosabat o'rnatish. Rahbarlar, yo'lboshchilar va tadbirkorlardagi mana shu xususiyat ularning hayotda muvaffaqiyat va yuqori darajalarga erishishiga sabab bo'ladi.

Mulohaza uchun

Yakshanba kuni bo'lgani uchun bozorda odam ko'p. Adhamning ro'parasidan kiyim rastalari oralab kelayotgan aravakash qaddini arang ko'tarib, yukning og'irligidan lapanglab sudralayotgan aravani zo'rg'a tortardi. Aravakash Adhamning oldiga yaqinlashgan sari u o'zini chetga olishga harakat qildi.

Arava Adhamni bir turtgandek bo'ldi. Aravakash Adhamdan uzr so'radi. Aravaning keyingi turtishi Adhamning yonida turgan bir yigitga nasib qildi. Lekin u yigit aravakashning: «Uzr aka!» – degan gapiga ham parvo qilmay, «Ey, ko'zingga qaramaysanmi? Qanaqa aravakashsan?..» – deb baqira boshladi. Aravakash yana, «Aka, uzr so'rayman. Bizdan o'tdi», – dedi xotirjamlik bilan. Yigit esa baqirishda davom etdi. Aravakash



vazminlik bilan: «Uzr, kechirasiz yana bir bor», – dedi va nim tabassum qildi. Bu safar boya jahli chiqqanida g‘azab otiga mingan yigit shashtidan tushdi: «Bo‘pti, bo‘pti, mayli endi, e’tiborli bo‘lgin-da», – deb, o‘z yo‘lida davom etdi.

1. Voqea ishtirokchilarining hissiy holatiga va muomala madaniyatiga e’tibor bering. Bu voqeada kim o‘z hissiyotlarini boshqara oldi va muomala madaniyatiga rioya qildi?
2. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun hissiyotlarni boshqara bilish kerakmi?
3. Jahli chiqqanida g‘azab otiga mingan yigitning shashtidan tushishining sababi nimada edi?

Bilasizmi?

Muzokara olib borishda eng muhimi – bu ravon nutq va fikrni aniq ifoda qilishdir. Notiqqa aylanish uchun nutqni rivojlantirish yo‘llari mavjud. Inson muntazam mashq qilsa, nutq ravonligiga erishish mumkin.

1. Nutqingizni ravon qilish uchun kitob, matnlarni ovoz chiqarib o‘qing. Har kuni 15–20 daqiqa matn o‘qisangiz, tez orada so‘zlarni aniq va ravon ayta boshlaysiz.
2. Ko‘zgu qarshisida mashq qiling. Ko‘zgu qarshisida so‘zlab nutqni oshirish – sinalgan usul. Bu orqali hislarni yuzda ifodalashni, tana harakatidan foydalanish va qad-qomatni tutishni yaxshi o‘rganish mumkin.
3. Fikrlaringizni yozib yurishga ham odatlaning.
4. Tez aytishdan foydalaning.
5. Yolg‘iz bo‘lganingizda o‘zingizga so‘zlang, harflarni to‘g‘ri talaffuz qiling.

O‘zbekiston xalq artisti, oliy toifali suxandon Abdumo‘min O‘tbosarov samarali muloqot qilishning sirini quyidagicha bayon qilgan:

– suhbatdoshingizga samimiy munosabatda bo‘ling;
– talaffuzni yaxshilang;
– ovozingizni sozlang;
– ko‘proq ovoz chiqarib o‘qing;

– ko‘proq tinglang;
– keraksiz axborotdan qoching;
– bilimingizni oshiradigan insonlar bilan muloqot qiling;
– muhokama qilmoqchi bo‘lgan mavzuingizni atroflicha o‘rganing;
– fikrni jamlang va yaxshi fikrlang;
– o‘ylang, keyin so‘zlang;
– juda tez gapirmang.

Ijodiy faoliyat

1. Yaxshilab o‘ylab javob bering:

– Maktab sahnasida hech chiqish qilganmisiz?
– Hammaning nigohi sizga qadalganida o‘zingizni qanday his etgansiz?

2. Quyidagi vaziyatlardan kommunikativlik belgilarini aniqlang:

1-vaziyat. Sinfdoshlari Jasminani sinf sardori qilib saylashdi. Navro‘z bayrami oldidan maktabni obodonlashtirish ishlariga yordam berishda sinfdoshlarining fikrini bilish maqsadida Jasmina yig‘ilish o‘tkazdi. Qizlar, «biz supurgi, chelak, oyna yuvish uchun zarur bo‘lgan vositalarni olib kelamiz»; o‘g‘il bolalar esa belkurak, tokqaychi, xaskash kabi mehnat qurollarini olib kelishlarini aytishdi. Belgilangan vaqtda hamma hasharga chiqdi. Hasharda...

2-vaziyat. Sinfdoshlari Azizni sinf sardori qilib saylashdi. Aziz sinfdoshlariga Navro‘z bayrami oldidan maktabni obodonlashtirishda yordam berish topshirig‘ini berdi: qizlar supurgi, chelak, oyna yuvish uchun zarur bo‘lgan vositalarni, o‘g‘il bolalar esa belkurak, tokqaychi, xaskash kabi mehnat qurollarini olib kelishlarini aytdi. Belgilangan vaqtda hamma hasharga chiqdi. Lekin...

1. Siz nima deb o‘ylaysiz, sinfdoshlari nima uchun Jasminani sinf sardori qilib saylashgan?
2. Siz sinfingizning sardorini qanday saylagansiz?
3. Agar siz sardor bo‘lsangiz, sinf bilan qanday ishlagan bo‘lardingiz?
4. Jasmina va Azizning harakatlariga baho bering.
5. Voqealarni davom ettiring.

Mulohaza uchun

Kaykovus o‘g‘liga nasihat qilib, deydi: «Xalq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi. Ya’ni bir so‘zni bir ibora bilan aytsa bo‘ladi, eshitgan kishining ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko‘ngli bahra oladi...»

Bilimingizni mustahkamlang

1. Nima uchun xalqimiz orasida: «Yaxshi so‘z jon ozig‘i», – degan maqol bor? Quyidagi rasmni ushbu maqol bilan bog‘lab tahlil qiling.
2. Hayotingiz davomida noqulay ahvolga tushganingizda sizga kim ko‘mak bergan? Shu haqda daftaringizga yozing.
3. «Men orzu qilgan kasb» mavzusida nutq tayyorlang.



21–22-MAVZULAR: SAMARALI MULOQOT SIRLARI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Samarali muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Xafa bo‘lgan insonning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qilganmisiz?
3. «To‘xta, tingla!», «Ko‘p gapirma!», «Tinglashni bil!» kabi hikmatlarni tahlil qiling.
4. Kun davomida qancha insonlar bilan, qaysi mavzularda muloqot qilasiz?

Mulohaza uchun

Biz qabul qiladigan qarorlarimiz insonlar bilan bo‘ladigan muloqotlarga bevosita bog‘liq. Samarali muloqot masalaning yechimini to‘g‘ri topishga xizmat qiladi. Muloqotning samimiy, natijaviy va samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga rioya qilishimiz lozim:

1. Nimani xohlayotganingizni aniqlang.

Suhbatdoshingizga nima demoqchisiz yoki undan qanday javob kutyapsiz? Bu savolning javobi muloqotning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Tinglashni o‘rganing.

Tinglayotgan va gapirishni toqatsizlik bilan kutib turgan odamlar o‘rtasida katta farq bor. Gapirishdan oldin boshqalarning fikr-mulohazasini tinglang. Tinglash qobiliyati ikki tomonlama tushunish uchun asosdir.

3. Savol bering.

Suhbatdoshingizni tinglash chog‘ida undan savollar so‘rash – mavzuga qiziqishingizdan darak. Suhbat davomida undan fikrlariga oydinlik kiritishini so‘rang. Bu muloqotni yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

4. Suhbat jarayonida samimiy va e’tiborli bo‘ling.

Insonning samimiyligi va e’tibori suhbatdoshga uning yonida o‘zini xotirjam his qilishga yordam beradi. Ayniqsa, butun suhbat jarayonida qo‘l telefonidan ko‘z uzmaslik – katta beodoblik sanaladi.

5. Tana harakatlaridan foydalaning.

Muloqot chog‘ida suhbatdoshingizning ko‘zlariga boqing, uning fikrlarini boshingiz va nigohingiz, yuz ifodangiz bilan tasdiqlab turing.

6. Xayrixoh bo‘ling.

Xayrixohlik odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat-izzatni ta’minlaydi. Odamlarga xayrixoh bo‘lsangiz, ular bilan yaxshi munosabat o‘rnatasiz.

Ijodiy faoliyat

Fikrni davom ettiring va daftaringizga yozing:

Men muloqotni ... deb tushundim.
Muloqotga kirishishda ... qilish kerak.
Agar men ... bo‘lsam, odamlar meni hurmat qilishadi.
Suhbatdoshni eshitish qobiliyati ... samarali kechadi.

Bilimingizni mustahkamlang

Quyidagi maqollarni o‘qing va tahlil qiling:
1. «Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas».
2. «Til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og‘irroqdir».

Mulohaza uchun

Insonlar quyidagi muloqotlarda o‘ta e’tiborli bo‘lishlari zarur:

Ota-ona bilan

– yuzlariga tik boqmang;
– yuzingizni burishtirmang;
– ovozingizni balandlab gapirmang;
– ular bilan gaplashganda boshingizni egibroq gaplashing;
– ota-onangiz chaqirsalar, tezda javob bering.

Davradagilar bilan

– baqirib gapirmang;
– qo‘pol hazillar qilmang;
– bema’ni gaplarni so‘zlamang;
– hushyor bo‘lib so‘zlang;

– maqtanchoqlik qilmang;

– mish-mish va g‘iybatlarga qo‘shilmang.

Qo‘shnilar bilan

– ochiq yuz bilan so‘zlang;

– iltifotli va mehribon bo‘ling, yordam bering va himoya qiling;

– qo‘shningizdan yomonlik ko‘rsangiz ham sabr qilib, uni obro‘sizlantirmang;

– qo‘shningizning biror hojatini chiqarsangiz, minnat qilmang.

Atrofdagilar bilan

– haqorat nazari yoki bepisandlik bilan qaramang;

– mehr-shafqatli bo‘ling;

– biror kishi bilan suhbatlashishdan avval uning beg‘arazligiga ishonch hosil qiling.

QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN

Jamoat joylarida nimalarga e’tibor berish kerak?

Yo‘lda. Yo‘lning belgilangan joyidan yurish, o‘ng qo‘l qoidasiga amal qilish, telefonda, hamrohlari bilan baqirib gaplashmaslik, har xil harakatlar bilan e’tiborni tortmaslik, yurayotganda ovqat yeyish, transport vositalariga e’tiborsizlikni yuzaga keltiradigan quloqchinlar taqib yurish yaramaydi.

Suhbatlashayotganda yon-atrofdagilarga tikilib turish, birovni qo‘l bilan ko‘rsatish mumkin emas.

Yoningizdagi kishi o‘qiyotgan kitob, gazeta, jurnalga qarash, baland ovozda kulish, baqirish, yig‘ilishlarda oyoqni tapillatish tartibsizlik belgisidir.

Transportda o‘zaro hurmat, iltifot, xushmuomalalik. Yoshi kattalar, ayollar, bolalar, nogironlarni oldinga o‘tkazing, ko‘chani kesib o‘tish, transportga o‘tirishiga yordamlashing. Ko‘chada sizdan yo‘l so‘ragan kishiga, albatta, yordam bering, xushmuomalalik bilan javob bering. Jamoat transport vositalariga moddiy zarar yetkazmang: chizmang, yirtmang, sindirmang.

Metro, avtobusga chiqqanda bo‘sh joyni egallashga shoshmang. Bo‘sh joyga o‘tirishdan avval atrofga nazar soling. Birinchi navbatda, yoshi katta, yosh bolali, nogiron va homiladorlarga joy bering. Yo‘l haqini o‘z vaqtida to‘lang.

Transportdan tushayotgan va chiqayotganlarga xalaqit bermang.

Transportdan tushayotganda foydalangan chiptalarni to‘g‘ri kelgan joyga tashlamang, buning uchun axlat qutilari ajratilgan.

Transportda mobil telefoningizni ovozsiz rejimga o‘tkazib qo‘yishni unutmang. Jamoat transportida ovqat yeyish mutlaqo mumkin emas.

Teatr va konsertda kelishdan oldin o‘tkir hidli taomlarni iste’mol qilmang; spektakl boshlanishidan 15–20 daqiqa oldin kelishga odatlaning.

Zalda tanishlaringizni uchratib qolsangiz, ularga yengilgina bosh silkib, tabassum qiling.

Agar tomoshabinlar zalidagi o‘z joyingiz sizni qanoatlantirmasa, boshqalarning joyini egallab olmang.

Kutubxonada boshqa kitobxonlarga xalaqit bermang.

Kitoblardan juda ko‘pchilik foydalanishi kerakligi yodingizda bo‘lsin. Kitobni ehtiyotkorlik bilan varaqlang, buklamang.

Kutubxonada mobil telefoningizni ovozsiz rejimga o‘tkazib qo‘ying. Faqat maxsus belgilangan joyda gaplashing.

Ma’naviyat xazinasidan

Xulqning eng chiroylisi, keraksiz so‘zlardan tiyilishdir...

Bilimingizni mustahkamlang

1. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, dialog tuzing.

assalomu alaykum	marhamat	vaalaykum assalom
omad tilayman	rahmat	mumkinmi?
uzr	xush kelibsiz	ko‘rganimdan xursandman
ma’zur tutasiz	yaxshi boring	
uchrashguncha	yaxshi dam oling	ishlaringizga muvaffaqiyat

23–24-MAVZULAR: FARZAND – OILA KO‘ZGUSI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Oila a’zolaringiz oldidagi burchlaringizni bilasizmi?
2. Nima uchun «Farzand – oila ko‘zgusi» deyiladi?
3. «Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir». Ushbu fikrni amalga oshirish uchun qanday omillar zarur, deb o‘ylaysiz?
4. Eng katta boylik nima?
5. «Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki jamiyatning eng katta boyligidir», – deganda nimani tushunasiz?

Mulohaza uchun

Malika bozorga tushib, onasiga yangi ko‘ylak oldirdi. Ko‘ylak so‘nggi urfda, yangi chiqqan matodan tikilgan edi.

– Bolajonim, sen faqat o‘zingni o‘ylama, hammaning ham bunday kiyim kiyishga qurbi yetmaydi, – deya koyib qo‘ydi oyijonisi.

Xursandchiligini o‘rtoqlari bilan bo‘lishgisi kelgan Malika ko‘chaga yugurdi.

Daraxt tagidagi o‘rindiqda o‘tirgan Malikaning xayolini: «Opa, bir oz suriling!» – degan ovoz bo‘ldi.

Sochlari qora, quralay ko‘z qiz o‘rindiq chetiga o‘tirib, kitob varaqlay boshladi. Uning egnidagi rangi unniqqan, yoqasi va yenglari suzilgan ko‘ylakka qarab, Malika onasining gaplarini esladi.

– Qanaqa kitob o‘qiyapsan? – deb so‘radi qizdan.

– Chin insoniylik haqida, – javob berdi qiz.

Malika negadir yangi ko‘ylagini shu qizga sovg‘a qilgisi keldi:

– Sen shu yerda o‘tirib tur, ketib qolma! – dedi-da, uyiga yugurdi...

Ijodiy faoliyat

1. Sizningcha, voqea qanday tugaydi?
2. Siz Malikaning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
3. Onasi qizini nima uchun koyidi?
4. Bo‘lgan voqeaga oiladagi tarbiyaviy muhitning qanday ta’siri bor, deb o‘ylaysiz?

Ma’naviyat xazinasidan

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Mulohaza uchun

INOQ OILA

Uzoq Xitoyda yuzdan ortiq a’zosi bilan butun bir qishloqni egallagan oila yashab o‘tgan ekan. Oila a’zolari bir-birlari bilan nihoyatda ahil, inoq yashashar ekan. Bu oilaning dovrug‘i mamlakat hukmdorining qulog‘iga ham yetib boribdi. Hukmdor qishloqqa tashrif buyuribdi. Bu yerda hamma yoq ozoda, aholi boy va to‘q, qariyalar xotirjam, bolalar baxtli yashar ekanlar.

Hukmdor o‘zi bilan birga yurgan oqsoqolga yuzlanib, bunday tinchlik va xotirjamlikning sababini so‘rabdi. Oqsoqol bir varaq qog‘ozga qandaydir so‘zlarni uzoq yozibdi, so‘ng uni hukmdorga uzatibdi. Qog‘ozda uchta so‘z yozilgan edi: «SABRLILIK, KECHIRIMLILIK, MUHABBAT».

Qog‘ozning oxiriga: «Yuz marotaba SABRLILIK, yuz marotaba KECHIRIMLILIK, yuz marotaba MUHABBAT», deb qo‘shib qo‘yilgan edi. Hukmdor bu so‘zlarni o‘qib hayron bo‘libdi va: «Bo‘ldimi, yozganlaringning hammasi shumi?» – debdi.

– Ha, bu so‘zlar har qanday baxtli oilaning asosidir, – debdi oqsoqol va yana: «Yurt tinchligining asosi ham shu», – deya qo‘shib qo‘yibdi.

Ijodiy faoliyat

1. «Sabrlilik, kechirimlilik, muhabbat». Bu so‘zlarda qanday ma’no borligini aytib bering?
2. Bu so‘zlarning oila va yurt hayotidagi o‘rni haqida mulohaza yuriting.
3. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun mutafakkirlar: «Buyuk davlatni faqat sog‘lom avlod qura oladi», deb aytishadi?
4. Sog‘lom avlod qanday jihatlarga ega bo‘lishi kerak?

Bilasizmi?

TALABANING MUVAFFAQIYATI SIRI

Mamlakatning eng nufuzli universitetiga yuqori ko‘rsatkich bilan o‘qishga kirgan yigitning otasi chekka qishloqda dehqonchilik qilib kun kechirar edi. Televideniyeda maxsus ko‘rsatuv tashkil qilinib, otani taklif qilishibdi.

To‘g‘ri-da, o‘ziga to‘q xonadonlar yillar mobaynida eng zo‘r o‘qituvchilarni yollab, farzandlarini bo‘lajak jiddiy sinovga tayyorlasalar-u, hech qanday ma’lumoti bo‘lmagan dehqonning o‘g‘li eng yaxshi natijani ko‘rsatsa. Qanday qilib? Nahotki maxsus tayyorgarliksiz shunday natijaga erishish mumkin bo‘lsa?!

– O‘g‘lingizning muvaffaqiyatini nima bilan bog‘laysiz? – deb savol berdi jurnalist.

– Bu undagi harakatning natijasi. O‘g‘lim bolaligidan talaba bo‘lish orzusi bilan yashar edi, – dedi ota.

– Bu orzu hammada bor. Bunday kuchli raqobatda birinchi bo‘lish – mo‘jiza. Undagi kuchli qiziqishda oiladagi muhitning ham o‘rni bor. Farzand voyaga yetkazishda biror o‘ziga xos usulingiz bormi? – yana qiziqdi jurnalist.

– Mening biror usulim yo‘q. Menda yoshlikdan qunt bilan savod chiqarish uchun imkon bo‘lmagan. Shu bois o‘g‘limni maktabga kuzatgan ilk kun undan yaxshi o‘qishini, nimaiki o‘rgansa menga ham o‘rgatishini so‘radim. U har kuni maktabdan qaytib, o‘qituvchisidan o‘rganganlarini menga katta hayajon bilan tushuntirar edi. Kechki mahal birgalikda dars qilish, o‘g‘limni

tinglash va uni rag‘batlantirish kundalik mashg‘ulotimga aylandi. O‘qish-yozishni o‘rgandim, maktabning so‘nggi kuniga qadar o‘g‘lim menga ustozlik qildi. Ehtimol, shu voqea uning muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgandir. O‘g‘lim boshida mening oldimdagi mas’uliyatni deb o‘qishga jiddiy qaragan bo‘lsa, bora-bora unda ilmga bo‘lgan ishtiyoq bo‘y ko‘rsatdi.

To‘g‘risini aytsam, uning uchun qo‘shimcha darslar yollashga qurbim yetmagan...»

Bu suhbat ko‘plab odamlarni ilhomlantirdi, irodali ota millionlab ota-onalar uchun ibratga aylandi.

Demak, o‘qiganini takrorlash, sabr bilan mehnat qilish, maqsad sari intilish muvaffaqiyat kaliti sanaladi.

Ijodiy faoliyat

1. Talaba erishgan muvaffaqiyatning siri nimada?
2. Bolaning faoliyatida burch va mas’uliyat belgilari bormi? Bu fazilatlarga amal qilish bolaning kelgusi hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
3. «O‘g‘lim boshida mening oldimdagi mas’uliyatni deb o‘qishga jiddiy qaragan...», – deganda ota qanday mas’uliyatni nazarda tutdi?

Ma’naviyat xazinasidan

Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak.

Abu Nasr Forobiy

Bilimingizni mustahkamlang

1. O‘z oilangizda o‘zingizni baxtli his etishingiz uchun nima qilishingiz zarur, deb hisoblaysiz? O‘ylab ko‘ring.
2. Kelajakda oilangizni qanday tasavvur qilasiz? (Reja tuzing yoki rasm chizing.)

25-MAVZU: AVVAL TINGLASHNI O‘RGANING

Ijodiy faoliyat

«BUZUQ TELEFON»

– Kamida 8–9 nafar ishtirokchi xonadan chiqadi. Ishtirokchilarning o‘rni belgilanadi (1–6).

– 1-ishtirokchi ixtiyoriy (avvaldan tayyorlab qo‘yilgan qiziqarli, lekin ishtirokchilarga noma’lum hikoya) matnni o‘qiydi.

– Eslab qolib, matnni joyiga qaytib qo‘yadi.

– 2-ishtirokchiga matnni aytib beradi (hech kim eshitmasligi zarur).

– Keyin 2-ishtirokchi matnni shu tarzda 3-ishtirokchiga yetkazadi (eslab qolib, aytib beradi).

– Oxirgi ishtirokchi bu matnni hammaga e’lon qiladi.

– 1-ishtirokchi o‘qigan matn bilan taqqoslab, baland ovozda o‘qiydi.

– Agar birinchi ishtirokchi aytgan gapi so‘nggi ishtirokchiga aytgan gapdan farqli chiqsa, unda bu jamoa yutqazadi.

Mazkur o‘yin yuzasidan har biringiz o‘z fikringizni bildiring. Nima uchun bu o‘yinning nomi «buzuq telefon» deb nomlanadi. Xulosangizni hayotiy misollar bilan izohlang.

Bilasizmi?

Tinglashning ahamiyati:

– e'tibor bilan tinglash xushmuomalalik va yaxshi xulq-atvorni aks ettiradi;
– o'qituvchining ko'rsatmalariga diqqat bilan quloq solish bilim va malakani oshiradi;
– e'tiborsiz tinglashning natijasi ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi;
– tinglash qobiliyati ijtimoiy munosabatlar va suhbatni yaxshilashi mumkin;
– boshqalarni tinglash ham san'at hisoblanadi.

Ijodiy faoliyat

1. Muloqot jarayonida qanday muammolar bo'lishi mumkin?
2. Insonlar bilan munosabatga kirishishda tinglash qanchalik muhim deb o'ylaysiz?
3. Muloqot jarayonida qanday omillar tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi?
4. Tinglash uchun insonda qanday ko'nikmalar bo'lishi lozim?
5. Uzoq vaqtdan keyin uchrashib, suhbatlashish o'rniga smartfondan foydalanib o'tirgan do'stlarning holatini qanday izohlaysiz?

Ma'naviyat xazinasidan

Odamlar bilan olovga muomala qilgandek munosabatda bo'l, foydalaridan olgin-u, kuydirishlaridan ehtiyot bo'l!

Alisher Navoiy

26-MAVZU: HARAKAT QILMAGAN BAXTGA YETOLMAS

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Baxt va baxtsizlik doim yonma-yon turadi», deyishgan donishmandlarimiz. Bu fikrga munosabat bildiring.
2. «Har tirik inson agar qilsa harakat, Harakatga qarab topar barakat». Binoiyning ushbu fikrini tahlil qilib bering.
3. O‘z harakati bilan baxtga erishgan insonlardan kimlarni bilasiz? Kichik esse yozing.



Mulohaza uchun

Qadim zamonda bir dehqon o‘tgan ekan. Uning hovlisida bir tup uzum daraxti bor ekan, shu tok daraxtidan olgan hosilni sotib, tirikchilik qilar ekan. Bir kuni dehqon betob bo‘lib, yotib qolibdi. U yolg‘iz farzandini yoniga chaqirib:

– O‘g‘lim, mening kunim bitganga o‘xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Toklarimizning tagiga ikki xum tilla ko‘milgan. Shu tillani yilda ikki marotaba – bahor va kuzda kovlab olib, tirikchiligingga ishlat, – debdi-da, olamdan o‘tibdi. Bu payt qish ekan, yigit bahorni orziqib kutibdi. Olamni gullolaga o‘rab bahor ham kelibdi. Yigit ketmonni qo‘liga olib,

toklarning tagini bel baravar qilib kovlab chiqibdi. Biroq oltin topilmabdi. Shu orada toklar kurtak chiqarib, yaproq yoza boshlabdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to‘xtatib, tok bilan ovora bo‘lib qolibdi. Shu yili tok chunonam hosil beribdiki, yigit uni pullab tamom qila olmabdi. Kelasi yil ko‘klamda ham yigit oltin qidiribdi. Yana oltin topilmabdi.

Biroq bu yil tok o‘tgan yildagidan ham ko‘p hosil beribdi. Yigit uni pullab, juda ham boyib ketibdi. Lekin hamon yigitning xayoli otasi aytgan oltinda ekan. U shu to‘g‘rida xayol surib o‘tirgan ekan, otasining qadrdon oshnasi kelib qolibdi. Yigit unga voqeani aytgan ekan, chol xaxolab kulibdi-da, keyin:

– Bolam, otang aytgan oltinlarni olibsan-ku, – debdi.

– Otaxon, bog‘dan bir misqol ham oltin topganim yo‘q, – debdi yigit.

– Nega yolg‘on gapirasan? Bo‘lmasa, bu boyliklarni qayerdan orttirding? – debdi chol.

– Mehnat qilib topdim.

– Sen mehnatni mo‘l hosil olish uchun emas, oltinni topish uchun qilding. Otang ko‘p aqlli odam edi. U senga mehnatdan unadigan oltinlarni aytgan, – debdi chol.

Ijodiy faoliyat

Biz maqsadga erishish uchun qanday harakatlarni amalga oshiramiz? Og‘zaki sanab bering.

Mulohaza uchun



MUNOSIB HAYOTNING KALITI – HARAKAT

«Yaxshi hayot harakat bilan hisoblashadi», degan edi qadimgi yunon donishmandlaridan biri Sofokl. Toki maqsadingiz yo‘lida to‘xtamas ekansiz, baxtiyorlik sizni tashlab ketmaydi.

Maqsad ortidan qat'iy harakat bilan borish uchun quyidagilarni unutmang:

Ishtiyoq bilan yashang.

Hayot – sizga berilgan imkoniyat. Jamiyat sizdan yangi fikr, g‘oya yoki harakat kutadi. Har daqiqa dunyoni yana bir daraja yaxshi tarafga o‘zgartirish ishtiyoqi bilan yashang.

Tavakkal qilishdan qo‘rqmang.

Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l esa botir. Qancha ko‘p qo‘rqsangiz, qarshilik shuncha kuchayadi. Ishonchni yo‘qotmang.

Orzularingizdan voz kechmang.

Ezgu istaklaringizni maqsadga aylantiring va unga intiling. Munosib hayot – maqsadlarni ro‘yobga chiqarganlarga nasib etadi.

Muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmang.

Muvaffaqiyatsizlik sizni maqsadingiz sari bir qadam oldinga siljitadi. Muvaffaqiyatsizlikdan muvaffaqiyatga erishishni o‘rganish mumkin. Hech qachon ortga chekinmang.

Ma’naviyat xazinasidan

Ilmli kishi xazina bo‘lsa, savol uning kalitidir.

Mulohaza uchun

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda ko‘zi ojiz va oyog‘i falaj bo‘lgan ekan. Ular cho‘ldagi bir qishloqda yashar ekanlar. Qishloqni falokat bosib, hamma qishloqdan qochib ketibdi.

Faqat ikkalasi qutulishdan umidlarini uzgancha qishloqda qolibdi. Shunda oyog‘i falaj ko‘zi ojizga:

– Men yurishdan ojizman, lekin to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga qodirman. Sen esa, yo‘l ko‘rsatishga ojizsan-u, yo‘l yurishga qodirsan. Mumkin bo‘lsa, meni opichlab olsang, men yo‘l ko‘rsatsam. Zora ikkalamiz birgalikda halokatdan qutulsak, – debdi.

Ko‘zi ojiz oyog‘i falajning aytganiga rozi bo‘libdi-da, uni opichlab olibdi. Oyog‘i falaj yo‘l ko‘rsatib ketaveribdi. Ancha yo‘l yurganlaridan so‘ng ular halokatdan qutulibdilar. Shundan keyin ular bir-birlaridan ajralmaydigan qalin do‘st bo‘lib qolgan ekanlar.

Ijodiy faoliyat

1. «Munosib hayotning kaliti – harakat», degan fikrga o‘z hayotingizdan misol keltiring.
2. «Kimnidir yaxshi tarafga o‘zgartirmoqchi bo‘lsang, avvalo, o‘zing o‘zgar» degan fikrni hayotiy misollarda mavzu bilan bog‘lab asoslang.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Kelajak hayotingiz farovon bo‘lishini qanday tasavvur qilasiz?
2. Muvaffaqiyatga eltuvchi harakatlar traektoriyasini chizing.
3. Yo‘lingizda uchrashi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’sirlarni inobatga oling.
4. Salbiy ta’sirlarni bartaraf etishning rejasini tuzing.

27–28-MAVZULAR: YAXSHILIK YO‘LIDA HAMKORLIK

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hamkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Siz do‘stlaringiz bilan nima maqsadda hamkorlik qilasiz?
3. Yaxshilik qilish uchun hamkorlik qilish shartmi?
4. Siz maktabdosh do‘stlaringiz bilan hamkorlikda qanday tadbirlarda ishtirok etgansiz? Bu tadbirlar sizga nima berdi? Qanday taassurotlarga ega bo‘ldingiz?
5. Mahallangizda hamkorlikda qanday ishlar amalga oshiriladi?

Mulohaza uchun

HAMKORLIKNING SIRI

Bir kompaniyada 40 nafar xodim ishlardi. Xodimlarning hammasi yosh va aqlli edi. Lekin bir-birlaridan ma’lumotlarni yashirib, hamkorlik qilmaganlari uchun kompaniyaning daromadi juda tushib ketdi. Kompaniya rahbari uzoq o‘ylab, muammoning ajoyib yechimini topdi. U barchani qiziqarli o‘yin va musobaqalarga boy bayramga taklif qildi.

Kompaniya rahbari xodimlarni pufaklar bilan to‘ldirilgan xonaga olib kirdi. Xona o‘rtasidagi qutida ham shishirilmagan pufaklar bor edi. «Qutidan bittadan pufak olib, shishiring. Uning ustiga ismingizni yozing va xonada qoldirib keting», – dedi kompaniya rahbari. Hamma shartni bajarib, chiqib ketdi. Oradan bir fursat o‘tib, xodimlar pufaklar bilan to‘ldirilgan xonada yana jam bo‘lishdi.

«Endi bu yerdan o‘n daqiqa ichida ismingiz yozilgan pufakni toping. Faqat ehtiyot bo‘ling, kimda-kim biror pufakni yorsa, o‘yindan chetlashtiriladi», – ogohlantirdi rahbar.

Birorta xodim aytilgan vaqtda o‘z ismi yozilgan pufakni topa olmadi.

«Nahotki, hech biringiz ismingiz yozilgan pufakni topa olmagan bo‘lsangiz? – rejasi ish berayotganidan xursand rahbarning yuzida tabassum paydo bo‘ldi. – Unday bo‘lsa, shartni

o‘zgartiramiz. Endi ustiga ism yozilgan pufakni topib olsangiz, uni nomi yozilgan kishiga uzatib yuborasiz».

Birpasda pufaklar qo‘lma-qo‘l bo‘lib, oradan sanoqli daqiqalar o‘tmasdan har bir xodim qo‘lida o‘zining ismi yozilgan pufak bilan turar edi.

«Endi bir jamoa bo‘lib, hamkorlikda ishlashning ahamiyatini anglab yetgan bo‘lsangiz kerak! Agar o‘zimizda borini bir-birimiz bilan baham ko‘rsak va yolg‘iz emas, birgalikda ishlasak – muammolar hal bo‘lib, ishimizning unumdorligi oshadi», – dedi kompaniya rahbari.

Bilasizmi?

Odamlar bilan hamkorlikda ishlash uchun nimalar qilish kerak?

– o‘zaro ishonchni yo‘qotmang;

– o‘zgalarning fikrini hurmat qiling, mahoratini tan oling;

– kichkina ishlarga ham diqqat qiling, boisi katta ishlar kichkina ishlardan hosil bo‘ladi;

– maqsadga erishish uchun og‘ir vaziyatda ham bir-biringizni qo‘llab-quvvatlang;

– «Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun» qoidasiga amal qiling.

Ma’naviyat xazinasidan

Bir odam jamoaning muhim tarkibiy qismiga aylanishi mumkin, ammo bir nafar kishi jamoa bo‘la olmaydi.

Ijodiy faoliyat

«BERMUD UCHBURCHAGI»



O‘quvchilar, Bermud oroli haqida eshitganmisiz? Bermud orolida ko‘zga ko‘rinmas g‘ayritabiiy kuchlar mavjud. Bu kuchlar orol tepasidan uchib o‘tuvchi samolyotlar, atrofidan o‘tuvchi kemalar halokatiga sabab bo‘ladi. Faqat juda omadli va uddaburon sardorlargina bu oroldan halokatga uchramasdan o‘ta oladilar.

Hozir sizga savollar yozilgan kartochkalarni tanlash tavsiya etiladi. Savollarga javob berish orqali jamoa bilan ishlash haqida qanday ma'lumotga ega ekanligingiz sinaladi *(o'quvchilar savolli kartochkalarni tanlab, polga chizilgan uchburchak ichiga yig'iladilar).*

Savollarga javob bera olmagan o'quvchilar Bermud uchburchagidan chiqa olmaydilar *(dars davomida guruhlarga bo'lingan bo'lsa, unda ba'zi savollarga jamoadoshlari yordam berib, «xavfli» uchburchakdan chiqishiga yordam berishlari mumkin).*

Mulohaza uchun

TURNALAR

Bahor faslida o'lkamizga issiqsevar qushlar uchib kela boshlaydi. Ularga turnalar karvonboshilik qiladi. Turnalarni kuzatganmisiz? Ular burchak shaklida tizilib uchadilar. Nima uchun? Yolg'iz uchayotgan qushga nisbatan burchak shaklida tizilib uchishda samaradorlik oshadi.

Turnalar: «Bitta yo'nalishni ushlab, jamoa bo'lib harakatlansak, manzilimizga tez va oson yetamiz. Bir-birimizga yordam bersak, ko'zlangan natijalarga erishamiz», degan maqsad bilan harakat qiladilar.

Agar turnalar shaklni tark etsa, havo qarshiligiga uchraydi va yolg'izlikning qiyinchiligini his qiladi. So'ng darhol avvalgi shakliga qaytadi va to'dadan madad oladi, kuchi tejaladi, maqsadga erishish osonroq va maroqli bo'ladi. Turnalarning boshlig'i charchagach, shaklning oxiriga o'tadi. Bu payt boshqa turna yetakchilik qiladi. Turnalar bir-birlarini qo'llab-quvvatlash uchun «quv-quv» degan ovoz chiqaradilar, bu bilan ular tezlikni bir xilda saqlab qoladilar.

Bilimingizni mustahkamlang

1. Mavzuga oid maqollar topib keling.
2. Hamkorlikda bajariladigan qanday ishlarda ishtirok etgansiz, shular haqida yozing.
3. Sinf jamoangiz yanada ahil bo'lishi uchun ijobiy an'analar loyihasini tuzib keling.

29-MAVZU: DO‘STLIK

Birgalikda bajaramiz

1. Do‘stlik qoidalarini bilasizmi?
2. Siz o‘zingiz ushbu qoidalardan qaysi biriga amal qilasiz?
3. Daftaringizga do‘stlikni mustahkamlovchi qoidalardan yozing va ularga rioya qilishga harakat qiling:
   a) o‘zingiz uchun ma’qul bo‘lgan 5 ta qoidani daftaringizga yozing;
   b) partadoshingiz bilan muhokama qiling. Fikrlaringizni umumlashtiring;
   d) toq partadagi o‘quvchilar juft partadagi o‘quvchilar (orqa parta)ga o‘girilib, fikrlarni muhokama qiling va umumlashtiring;
   e) har bir qator 3 ta guruhga birlashib, takliflarni 7 ta qoidaga umumlashtiring;
   f) umumlashgan fikrlarni doskaga iling;
   g) endi diqqat bilan har bir guruh tomonidan ishlangan do‘stlik qoidalarini o‘qib chiqing;
   h) barcha qoidalarni yana 10 ta qoidaga birlashtirib chiqing.

Ma’naviyat xazinasidan

Do‘stlik – barcha boylikdan afzal.

Mulohaza uchun

DO‘STLIK LAFZI

(Bo‘lgan voqea)

Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a tumanida yashovchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Nikolay otaning xonadonida mehmon bo‘ldik. Bizni ko‘ksi medallarga to‘la, qotmadan kelgan nuroniy otaxon qarshi oldilar. Ismidan ruslarga o‘xshab

ketadigan Nikolay otani ko‘rishni taxmin qilganim uchun avvaliga biroz ikkilandim. Gapdan gap chiqib, ismiga qiziqib qoldim.

«Qishloqda meni Qurbonboy chavandoz deyishardi. Navqiron yoshimda urushga ketdim. Nikolay ismli moskvalik yigit bilan og‘a-ini tutindik. Bir kuni yonginamizda mina portlab, ikkalamiz ham o‘raga quladik. O‘zimga kelganimda Nikolay tuproq ostida qolgan ekan. Uni chiqarib olib, ikki chaqirim olisdagi bo‘linmaga ko‘tarib olib keldim. Do‘stim o‘ziga kelgan kuni menga nom almashishni taklif qildi. Xullas, kim tirik qolsa, halok bo‘lgan inisining nomini olishga ont ichdik», – shu yerga kelganda Nikolay otaning ko‘zlari namlandi.

Oradan bir fursat o‘tib, daladagi otishmada battol o‘q uning moskvalik do‘stining ko‘ksiga tekkan. Urushdan tirik qaytgan Qurbonboy qishloqdoshlari oldiga kutilmagan talabni qo‘ygan. «Meni endi Qurbonboy emas, Nikolay deb chaqiringlar. Qurbon urushda o‘ldi», – deydi. Avvaliga hamma hayron bo‘lib, uning fikriga qarshi chiqdi. So‘ng voqeani eshitganlar ta’sirlanib, uni qo‘llab-quvvatladilar. Shu tarzda Qurbonboy «Nikolay Rahmetov»ga aylangan edi. Bu o‘zbek o‘g‘loni do‘stlik hurmati, inilik onti bois dushmanga qarshi kurashib jon bergan askarning nomini asr osha shon-sharaf bilan ko‘tarib yuribdi.

Bu voqeani yozar ekanman, ko‘ksim g‘ururga to‘lib, shunday tanti farzandlari bor xalqim bilan faxrlanib ketdim.

Ijodiy faoliyat

1. Do‘st qanday qilib oyna bo‘lishi mumkin?
2. Do‘st bo‘lish uchun do‘stlikning hamma qonun-qoidalariga rioya qilish, do‘stiga har qanday yo‘l bilan yordam ko‘rsatishga intilish kerakmi? Har doim do‘stingizning fikrini ma’qullaysizmi?
3. Fikringizni «Do‘stlik lafzi» hikoyasi bilan bog‘lang.

Ma’naviyat xazinasidan

Yaxshi do‘st oynadir, unda kishining butun yaxshi va yomon tomonlari aks etadi.

Abu Ali ibn Sino

Qanday qilib yaxshi do‘st bo‘lish mumkin?

Bilimingizni mustahkamlang

1. Shoir Erkin Vohidovning do‘stlik haqidagi fikrini tahlil qiling:

   Agar do‘sting bilan teng ko‘rsang baham,
   Shodlik teng ko‘payar, teng bo‘linar g‘am.

2. Tarix va adabiyot kitoblaringizdan chinakam do‘stlik namunalariga misollar keltiring.
3. Sizning chin do‘stingiz bormi, bo‘lsa uning qaysi fazilatlari sizga yoqadi? Daftaringizga yozing.

30-MAVZU: INSONIYLIK – XALQIMIZNING ENG BUYUK FAZILATI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Insoniylik» deganda nimani tushunasiz?
2. Inson hayotida insoniylik fazilatlari va mehr-oqibat qanchalik zarur?
3. Volontyor kimligini bilasizmi?
4. Siz har kuni insoniylik, mehr-oqibat degan gaplarni ko‘p eshitasiz. O‘ylab ko‘ring-chi, bu iboralar tarkibiga qanday fazilatlar kiradi?

Mulohaza uchun

Bir kuni Amir Temurga otasi bir suruv qo‘y berib, Samarqand bozorida pullab kelishni topshiradi. U qo‘ylarni ming tangaga sotgach, bozor aylanadi. Qo‘lida she’r yozilgan qog‘oz tutganicha, odamlarga nimanidir tushuntirayotgan qalandarga duch keladi.

– Kimda-kim shu she'rni ming tangaga olsa, murodiga yetadi, – der edi u.

Temur ikkilanib o‘tirmay, ming tangani beradi-da, qog‘ozni oladi.

– Buni otang oldida o‘qi! – deya tayinlaydi qalandar.

Qog‘ozni keltirib otasiga beradi. Bu mashhur shoir Kamol Xo‘jandiyning ruboiysi bo‘lib, mazmuni quyidagicha ekan: «Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo‘lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandarlar o‘tib ketdi. Navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoga keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir».

«Otam rosa urishsa kerak», deb ming bir shubha-gumon o‘tida titrab turgan Temur nogoh shunday so‘zlarni eshitadi:

– Pulni ko‘p ezgu yo‘lda sarf etibsan, o‘g‘lim. Endi bu hikmatga bir umr qat’iy rioya etish lozim, – deydi otasi.



Bilasizmi?

Volontyor – bu ixtiyoriy, beminnat, beg‘araz, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi.

Volontyorlar nafaqat madaniyat, jamiyat rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shadilar, balki faoliyatlari orqali o‘zgalar hayotini yaxshi tarafga o‘zgartirishiga sabab bo‘ladilar. Volontyorning bir soat ezgu ishlarga ajratgan vaqti kimningdir hayotini o‘zgartirishi mumkin!

Ijodiy faoliyat

1. Siz hozirgi kunda qaysi sohada volontyorlik qila olardingiz? O‘z fikringizni do‘stlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabr kuni qabul qilingan «Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunidan volontyorlikning maqsad va vazifalarini aniqlang.

Ma’naviyat xazinasidan

Insoniylik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan inson kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlardan saqlanishni o‘ziga odat qiladi.

Abdurahmon Jomiy

Volontyor – bu ko‘ngilli fuqaro.

Boshqalarga g‘amxo‘rlik qiluvchi fidokor

Bilimingizni mustahkamlang

1. Nima uchun bugungi tez rivojlanayotgan zamonda volontyorlik zaruratga aylanib bormoqda?
2. Rasmlar asosida «Volontyorning faoliyati jamiyat uchun qanchalik zarur?» – degan savolga javob bering.

31-MAVZU: BAG‘RIKENGLIK – TINCHLIK VA TOTUVLIK SARI MUHIM QADAM

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tinchlik nima?
2. Tinchlik va totuvlikka qachon erishiladi?
3. O‘zbekiston xalqining bag‘rikenglik xislatlarini yorqin namoyon etgan qanday voqealarni bilasiz?

Mulohaza uchun

OLIMJONNI O‘YLANTIRGAN SAVOL

Olimjon katta tadbirkor bo‘lishni orzu qilar edi. Universitetda o‘qib yurgan kezlari «Biznes strategiyasi» uning eng sevimli fani bo‘lgan. U soatlab vaqtini tadbirkorning formula va qoidalarini yodlashga sarf qilar edi.

Nihoyat, uzoq tayyorgarlikdan so‘ng ilk imtihonlar boshlandi. O‘qituvchi bilan yuzma-yuz turar ekan, Olimjon tadbirkorlikka oid bilimlarni tinmasdan takrorlar edi. Lekin kutilmagan savoldan u shoshib qoldi.

«Senga 10 hafta davomida tadbirkorlik haqida bilganlarimni o‘rgatdim. Bu bilimlarni puxta o‘zlashtirganing ham menga alla-qachon ma’lum.

Biroq, hozir senga beradigan savolim biroz boshqacha. Menga shu o‘quv binosini har kuni tongda chinniday yaltillatib qo‘yadigan farrosh ayolning ism-sharifini ayta olasanmi?» – so‘radi ustozi undan.

Bu savoldan keyin Olimjon o‘qituvchiga ilk marotaba tik qarashga jur’at qildi: «Ehtimol, ustozim hazillashayotgandir», degan xayolga bordi. Ammo o‘qituvchi unga jiddiy qiyofada tikilardi. Ustozi farrosh ayolning ismini aytdi. Olimjon bu ayolni har kuni ko‘rar, yonidan befarq o‘tib ketardi.

Shu voqea saboq bo‘lib, shaharda tadbirkor sifatida nom qozongan Olimjon bugun atrofidagi har bir inson – u xoh farrosh yoki haydovchi bo‘lsin, kimligini va ismini yaxshi biladi. Aslida tadbirkor va rahbarning kuchi ham uning atrofidagi o‘z ishini sevgan insonlarni bilishi va ularni hurmat qilishidadir. Ya’ni, tadbirkorlik avvalo insoniylik qoidalari ustiga qurilishi kerak.

Ijodiy faoliyat

1. Insonlar o‘rtasida hurmat tuyg‘usi yo‘q dunyoni qanday tasavvur qilasiz?
2. Kibrli, birovni nazar-pisand qilmaydigan odamni ko‘rganingizda nimani o‘ylaysiz?
3. Dunyoning chegarasi bor, hayotning oxiri bor. Nimaning chegarasi yo‘q, nimaning oxiri yo‘q?
4. Ahil jamoa suratini chizish kerak bo‘lsa, uni qanday tasvirlagan bo‘lardingiz?

Bilasizmi?

«Bag‘rikenglik» so‘zining ma’nodoshi «tolerantlik» so‘zi bo‘lib, bu o‘zgalarning fikr-g‘oyalari, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo‘lish, ularni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish fazilatidir.

Mulohaza uchun

BAG‘RIKENGLIK

Rossiyalik teatr va kino aktyori Yuriy Stoyanov o‘zbek xalqining bag‘rikengligi haqida quyidagilarni aytadi:

«Urush yillarida onamning oilasi Stalingrad (hozirgi Volgograd)dan O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan. Yo‘lda poyezd bombardimon qilinib, onamning oilasi: 5 yoshli tog‘am, buvim va 7 yoshli onam bir-birlarini yo‘qotib qo‘yishgan. Onamga 7 nafar farzandi bo‘lgan o‘qituvchi ayol o‘z uyidan joy beradi. Uydagi yagona bo‘lgan karavotda onam, o‘zlari esa yerda yotishgan.

Onam maktabga borishi uchun oiladagi qizning sepiga atab olib qo‘yilgan matodan ko‘ylak, dasturxondan esa sumka tikib berishgan ekan. Eng asosiysi, o‘zbek xalqi onamni oilasi bilan topishishiga yordam bergan. Urush tugaguniga qadar ular Toshkentda yashashgan. O‘zbek xalqi bu kabi oilalarga nafaqat boshpana berdi, balki onam kabi bolalarni yashashga o‘rgatdi.

Men hozirgacha onam pishirgan o‘zbek palovini suyib tanovul qilaman. Onamdagi bag‘rikenglik, pazandalik, mehmondo‘stlik kabi fazilatlar o‘zbek zaminida olgan tarbiyasining natijasi, deb bilaman. Biz oilamiz bilan o‘zbek xalqidan minnatdormiz».

Bilimingizni mustahkamlang

1. Xalqimizning bag‘rikengligi haqida xorijliklarning fikrlarini to‘plang.
2. Yuriy Stoyanov o‘zining intervyusida xalqimizga xos qanday fazilatlar haqida to‘xtalgan?
3. Tinchlik-totuvlikni saqlash uchun yurtimizda qanday ishlar olib borilmoqda?

32-MAVZU: DAXLDORLIK

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Siz o‘z xatti-harakatlaringizni doim nazorat qilasizmi?
2. Daxldorlik nima? Mas’uliyat nima? Mas’uliyatni qanday tushunasiz?
3. Qanday majburiyatlarga egasiz?
   – uyda, oilada, мaktabda, jamoat joyida;
   – do‘stlaringiz bilan munosabatlarda.
4. Maktabdan qaytayotgan Bahromjon simyog‘ochda elektr simi uzilib yotganini ko‘rib qoldi. Aylanib o‘tib ketmoqchi bo‘ldi. Lekin bu yerdan o‘tishi mumkin bo‘lgan yosh bolalar va qariyalar ko‘z oldiga keldi-yu, qo‘l telefonidan 1050 – avariya xizmatiga telefon qildi. Muammo tezlikda bartaraf etildi.
   a) Bahromjon e’tiborsiz bo‘lganida, uning oqibati nima bo‘lardi?
   b) Siz bu vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
   d) Bu voqea bilan fuqarolik jamiyatining qanday bog‘liqlik tomoni bor?

Ma’naviyat xazinasidan

Kim biror-bir yaxshilik qilsa, unga o‘sha yaxshiligi o‘n barobar bo‘lib qaytadi.

Umri davomida yaxshilik qilgan insonning hayoti go‘zal bo‘ladi.

Mulohaza uchun

EZGU VA XAYRLI ISHLAR

1939-yil sentabr oyida fashistlar Polshaga bostirib kirganida, Irena Sendler hali o‘ttiz yoshga to‘lmagan edi. U Varshavada sanitar bo‘lib ishlardi. Fashistlar polyaklardan yahudiylarni ajratib olib, alohida getto (hudud)ga joylashdi.

1940-yilda gettoga kirishning yopilishi vaziyatni ancha murakkablashtirdi: oziq-ovqat yetishmas, epidemiyalar boshlangan edi. «Bu chinakam do‘zaxga o‘xshar: yuzlab odamlar ko‘chalarda o‘lib yotardi».

Irena Sendler

1942-yilda Irena yahudiylar gettodan o‘lim lagerlariga deportatsiya qilinishi haqida eshitib qoladi. Uyma-uy yurib, odamlarga vaziyatni tushuntiradi, hech bo‘lmaganda bolalarni o‘lim lageridan asrab qolish maqsadida reja tuzadi.

6 oylikdan 15 yoshgacha bo‘lgan 2500 nafar bolani «Tez yordam» mashinalarida yoki mahalliy savdogarlar yordamida sumka, jomadonlarda kiyim-kechaklar ostiga yashirib, yerosti quvurlari orqali olib chiqib ketadi.

1943-yilning oktabrida Irena qo‘lga olinadi. Bolalarga yordam berganligi uchun uni kaltaklab, oyoq-qo‘llarini sindirishdi va otuvga hukm qilishdi. Polshada antifashistik qarshilik namoyishchilari uni natsistlardan qutqarishdi.

Irena har bir bolaning ismi va ota-onasi haqidagi ma’lumotlarni yozib, shisha idishda do‘stining hovlisiga ko‘mib qo‘ygandi. Shahar fashitlardan ozod qilingach, idishlar berkitilgan yerdan qazib olinadi. Urushdan keyin u bolalarni o‘z oilalari bilan birlashtirishga harakat qiladi. Afsuski, ko‘pchilik bolalarning ota-onalari halok bo‘lgan edi.

Ijodiy faoliyat

1. Irena Sendlerning harakatlarida daxldorlikni asoslang.
2. Siz uning o‘rnida hayotingizni xatarga qo‘yib, bolalarni qutqargan bo‘larmidingiz? Nima uchun?
3. Irena Sendlerning *«Barchamiz bu hayotga yaxshilik qilish uchun kelganmiz»*, degan fikrini o‘z hayotingizdagi voqealar asosida izohlang.
4. Xafa insonning ko‘nglini ko‘tarish, tabassum bilan yaxshi kayfiyat ulashish, salom berish, insonlarga shirin so‘z, xushmuomala bo‘lish yaxshilik qilishga kiradimi?

Ma’naviyat xazinasidan

Men bu bolalarni qahramon bo‘lish uchun qutqarmadim. Bu insoniylik burchim bo‘lgani uchun ham ularga yordam qo‘lini cho‘zdim. Inson yordamga muhtoj boshqa insonga, uning millati va dinidan qat’i nazar, yordam berishga doimo shay turishi kerak. Barchamiz bu hayotga yaxshilik qilish uchun kelganmiz.

Irena Sendler

Mulohaza uchun

HIKOYA

(«O‘rgimchak odam» filmidan lavha)

«O‘rgimchak odam» filmi qahramoni Piter 3 ming dollar ishlab topish maqsadida «Suyak sindiruvchi» laqabli Mak Grou ismli odam bilan ringga chiqadi va uni ikki daqiqa ichida yer tishlatadi. Yutug‘ini olish uchun kassaga kelgan Piterga klub boshlig‘i 100 dollar uzatadi. Piter hayron bo‘lib:

– Yuz dollar? E’londa 3 ming deyilgandi-ku?! – dedi.

– O‘rgimchak kalla, yaxshilab o‘qigin. Bu yerda 3 daqiqa uchun 3 ming deyilgan, sen bo‘lsang uni 2 daqiqada yer tishlatding. Buning uchun senga 100 dollar beraman. Shuni olganingga ham xursand bo‘lgin, – dedi klub boshlig‘i.

– Menga bu pullar juda ham zarur, – dedi Piter.

– Nega endi bu narsa meni qiziqtirishi kerak? – deb e’tiborsiz javob berdi klub boshlig‘i.

Piter bahslashishning foydasi yo‘qligini tushunib, 100 dollar pulni oladi. U eshik oldiga yaqinlashganda ortida:

«Jin ursin, nima bo‘layapti?» – deb baqirgan tovushni eshitib, o‘girildi. Notanish bir odam klub boshlig‘iga to‘pponcha o‘qtalib: «Pullarni tezroq sumkaga sol. Tezroq bo‘l, imillama!» – deb turganini ko‘rdi.

O‘g‘ri pulni olgach, yugurib ketdi. Klub boshlig‘i esa, «Hoy! U yutuq pullarini o‘g‘irladi! U odamni to‘xtat!» – deb Piterga qarab baqirdi. Piter esa o‘g‘rini to‘xtatib qolishga hech qanday harakat qilmadi va o‘g‘ri uning yonidan yugurib o‘tib ketayotib, hatto unga rahmat ham aytdi.

Klub boshlig‘i Piterga:

– Senga nima bo‘ldi o‘zi? Sen uni qochirib yubording! Uni tilka-pora qilib tashlashing mumkin edi-ku? Endi esa u qochib ketadi. Uning yo‘lini kesib chiq va politsiyani chaqir, – dedi.

Piter esa beparvolik va kinoya bilan:

– Nega endi bu narsa meni qiziqtirishi kerakligini tushunmayapman? – dedi...

Piter, savolingga yarasha javobingni olding deb, o‘zining qilgan ishidan xursand bo‘lib bekatga yaqinlashganida odamlar kimnidir o‘rab olishgan, kimdir: «Ana, huv ana uyoqqa ketdi, yaramas, mashinani olib qochibdi. Bu kishi mashinaning egasi ekan, uni otib ketibdi», degan gaplarini eshitdi. Piter odamlar orasiga suqilib kirib borar ekan, ichidan otilib chiqayotgan to‘fon unsiz tovushga aylanib, bo‘g‘ziga tiqilib qoldi. Politsiyachilar jasadning ustini yopishmoqda edi. «Nahotki, Ben amakim bo‘lsa? Bo‘lishi mumkin emas». Afsuski, jasad Piterning Ben amakisi edi.

Ijodiy faoliyat

1. Piterning o‘rnida siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz?
2. Ben amaki bilan bo‘lgan fojianing oldini olish mumkin edimi?
3. Ben amakining o‘limiga kim sababchi, deb o‘ylaysiz?
4. «Ma’naviyat xazinasidan» ruknida berilgan hikmat bilan bog‘liqlik jihatlari bormi?

Ma’naviyat xazinasidan

Birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma’lum bo‘ladi.

Mulohaza uchun

«MEN BOSHQALAR UCHUN NIMA QILDIM?»

Ozoda oila a’zolari bilan dam olish kuni shahar markazidagi muzeyga boradigan bo‘lishdi. Yo‘lda ularning mashinasi tirbandlikka tushib qoldi. Ozodaning dadasi mashinadan tushib, vaziyatni bilib keldi. Ma’lum bo‘lishicha, svetofor ishlamay qolgan ekan.

– Bunday vaziyatda yo‘l harakati ishtirokchilari yo‘l belgilariga qarab harakatlansalar bo‘ladi-ku, – dedi Ozoda.

– Afsuski, hamma ham bunga amal qilmaydi. Aks holda, bunday tartibsizlik yuzaga kelmagan bo‘lar edi, – deya munosabat bildirdi dadasi.

– Endi nima qilamiz? – Ozodaning ukasi dadasiga yuzlandi.

– Ichki ishlar boshqarmasiga murojaat qilamiz, – dedi dadasi.

– Nega biz? Boshqalar emas? – hayron bo‘ldi Ozoda.

Ijodiy faoliyat

1. Ozodaning dadasi qanday javob qaytardi?
2. Siz qanday javob bergan bo‘lar edingiz?
3. Faol fuqarolik pozitsiyasini matn bilan bog‘lash mumkinmi?
4. Matn asosida daxldorlik pozitsiyasini izohlang.

* * *

– Chunki biz ham boshqalarning bir bo‘lagimiz. Sen doim o‘zingdan: «Boshqalar menga nima qildi emas, men boshqalar uchun nima qildim», deb so‘ra. Ana shunda hamma uchun yaxshi bo‘ladi, – javob qaytardi dadasi.

Mulohaza uchun

BEMINNAT YORDAM

Sulaymon har kuni maktabdan qaytar ekan, bir hovli oldida bir muddat to‘xtab qolardi. Suvoqlari ko‘chgan, deraza oynalari darz ketgan uyning biqiniga joylashtirilgan karavotda sakson yoshdan oshgan Sasha amaki doim yo‘lga qarab o‘tirardi. U yolg‘iz yashar edi.

Bahor kunlarining birida Sulaymon maktabga borayotganida Sasha amakining zo‘r-bazo‘r harakatlanib, derazadan suv to‘kayotganini ko‘rib qoldi. «Kechasi bilan chakka o‘tibdi-da», – o‘yladi Sulaymon.

Sulaymon maktabga borgach, sinfdoshlarini to‘plab, Sasha amakiga yordam berish bo‘yicha maslahat soldi. Tushdan keyin bir guruh maktab o‘quvchilari Sasha amakining hovlisini quvonchga to‘ldirdilar. Kim hovli supurgan, kim uy tozalagan, kimdir derazani ta’mirlagan. Sasha amaki xursandligidan o‘tirgani joy topolmas edi. Kechgacha hamma yoq saranjom-sarishta qilib qo‘yildi.

Bu tashabbusdan xabar topgan mahalla raisi Sasha amakinikiga kelib, «Biz bugun mahalla faollari bilan maslahat qilib, ertadan Sasha amakining uyini tubdan ta'mirlash ishlarini boshlab yuboramiz. Barchangizga rahmat, har bir inson shunday e'tiborli va uyushqoq bo'lsa, mahallamiz farovon va osuda bo'ladi», – dedi quvonib.

Ijodiy faoliyat

1. Beminnat yordamning bahosi qancha?
2. Sasha amakining xursandchiligiga nima sabab bo'ldi?
3. Siz kimgadir shunday xursandchilik ulashganmisiz?
4. «Qo'shni va yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi musofirga yaxshilik qiling!» – degan hikmat va matndagi yaxshilik o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Bilimingizni mustahkamlang

Mashq. Qanday qilib faol fuqaro bo'lish mumkin?

Qatordagi berilgan so‘zlarni ketma-ketlikda to‘g‘rilab, gaplar tuzing:

berish Huquqni qilish muhofaza yordam organlariga;

olish Maktabda ta’lim;

ishtirok faol etish Saylovlarda;

hurmat Davlat qilish ramzlarini;

ko‘ngilli Jamoat ishtirok etish sifatida ishlarida;

qilib va yashash toza Tozalikka joyini rioya yashash tutish;

amal va bo‘ysunish va qilish Qonunlarga qoidalarga;

hurmat va Boshqalarni ularga ko‘maklashish qilish;

o‘qish haqida O‘zbekiston va o‘rganish ko‘proq;

uchun Oila mehnat baxtiyorligi qilish halol.

33-MAVZU: MAHALLAMIZ FAROVONLIGI – BIZNING FAROVONLIGIMIZ

Ijodiy faoliyat

Ikki guruhga bo‘linib, quyidagi yo‘nalishlarda ma’lumotlar to‘plang:

1. Mahalla oqsoqoli bilan suhbat quring va quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

1-guruh:

a) mahallangizning manzili, yer maydoni, aholi soni, unda yashovchi millat vakillari haqida ma’lumot yig‘ing;

b) mahalla yig‘ini faoliyati qanday tashkil qilinganiga qiziqing. U yerda kimlar ishlaydi va ularning vazifalari?

d) mahallangizdagi muammolarni o‘rganing. Misol uchun, chiqindi tashlash, ekologiya bilan bog‘liq va boshqalar. Muammoni hal qilish yechimini taklif qiling.

2-guruh:

a) mahallangiz tarixini o‘rganing, uning nomlanishi haqida ma’lumotlar to‘plang;

b) mahalla rivoji, obodligi uchun mehnat qilgan va hissa qo‘shayotgan insonlar haqida o‘rganing;

d) mahallangizning qanday o‘ziga xosligi borligini o‘rganing. Tasavvur qiling, mahallangizga chet eldan sayyoh kelsa, unga nimalarni ko‘rsatgan bo‘lar edingiz?

2. Siz o‘zingizni mahalla oqsoqoli deb tasavvur qiling: mahallangiz bundan ham farovon bo‘lishi uchun qanday takliflar kiritgan bo‘lar edingiz? O‘z fikringizni daftarga yozing.

Ma’naviyat xazinasidan

Qo‘lga kiritayotgan har bir yutug‘imiz zamirida, albatta, tinchlik-osoyishtalik mujassam. Darhaqiqat, inson qalbida mudom bir tuyg‘u jo‘sh uradi: bu – ona Vatanga muhabbat, kindik qoni tomgan yurtga sadoqat va elga xizmat. Buni anglab yetish uchun dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga, ayrim davlatlarda kuzatilayotgan janjal-u to‘polonlarga, qonli to‘qnashuvlarga teran nazar solib, bu voqea-hodisalardan to‘g‘ri xulosa chiqarish kerak.

M U N D A R I J A

I bob. Oliy maqsad

1-mavzu: Inson – ezgulik ijodkori 4
2-mavzu: Oliy maqsadlar bilan yashash 8
3-mavzu: Muvaffaqiyat – qunt va qat’iyat natijasi 14
4–5-mavzular: Umr-umid-sinov-imkoniyat 19
6-mavzu: Tabiatni asrash – hayotni asrash 26

II bob. Axloq va tarbiya asoslari

7-mavzu: Inson axloqi bilan go‘zal 30
8-mavzu: Inson odobida aks etuvchi fe’l-atvor 33
9-mavzu: Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar 38
10–11-mavzular: Baxtiyor hayotning ustunlari 42
12-mavzu: Hammasi o‘z qo‘limizda 47

III bob. Hushyorlik va ogohlik

13-mavzu: Inson umri 50
14-mavzu: Ogohlik 55
15–16-mavzular: Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar 60
17–18-mavzular: «Men qanday insonman?» 66

IV bob. Muomala va muloqot asoslari

19-mavzu: Muomala uchun zarur odoblar 72
20-mavzu: Kommunikativlik – muvaffaqiyat kaliti 76
21–22-mavzular: Samarali muloqot sirlari 80
23–24-mavzular: Farzand – oila ko‘zgusi 86
25-mavzu: Avval tinglashni o‘rganing 90
26-mavzu: Harakat qilmagan baxtga yetolmas 92

V bob. Birlashgan o‘zar

27–28-mavzular: Yaxshilik yo‘lida hamkorlik 96
29-mavzu: Do‘stlik 100
30-mavzu: Insoniylik – xalqimizning eng buyuk fazilati 103
31-mavzu: Bag‘rikenglik – tinchlik va totuvlik sari muhim qadam 106
32-mavzu: Daxldorlik 109
33-mavzu: Mahallamiz farovonligi – bizning farovonligimiz 117

Tarbiya 7 [Matn]: darslik / Sh. Sattorov [va boshq.]. – Toshkent:
T 23 «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – 120 b.

ISBN 978-9943-6576-7-0

UO‘K 17(075.3)
KBK 87.7ya72

O‘quv nashri

D. Kenjayev, N. Ismatova, D. Ro‘ziyeva, N. Xolmuxamedova, Sh. Sattorov, Z. Zamonov, Z. Islomov, O. Maxmudov, D. Rahimjonov, C. Akkulova, S. Shermuhammedova, S. Madaliyeva, S. Zokirova, L. Mo‘minova

Tarbiya 7

Baxt va muvaffaqiyat sirlari

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Muharrir *G. Azizova*
Rassom-dizayner *D. Mulla-Axunov*
Texnik muharrir *T. Xaritonova*
Kichik muharrir *M. Salimova*
Musahhih
Kompyuterda sahifalovchilar: *K. Xamidullayeva, F. Hasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2020-yil -dekabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Ofset qog‘oziga ofset usulida bosildi. «Arial» garniturasi. Kegli 11.
Shartli bosma tabog‘i 13,95. Nashr tabog‘i ____. Nusxasi ____.
Buyurtma №____.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20 Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz *www.iptd-uzbekistan.uz*

COLORPACK
время ярких решений

Dizayn konsepsiyasi va uslubi bosh pudratchi Kolorpak MCHJ tomonidan ishlandi.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahba-rining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Kî‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

Ma’naviyat xazinasidan

Hushyor va zakovatli odam uldurki, uning fikr doirasi keng, uzoqni yaqindek ko‘ra oladigan, g‘aflat uyqusidan yiroq, balki hamisha fikr-u zikri bilan uyg‘oq, nozik ishoratdan ham o‘ziga xulosa chiqara oladigan kishidur.

Mahmud Zamaxshariy

Bilimingizni mustahkamlang

1. Berilgan hikoyani o‘qing va quyidagi vazifani bajaring: 55-betda «Mulohaza uchun» ruknida berilgan «Besh narsani besh narsadan avval g‘animat biling» mavzusidagi matn bilan qanday bog‘liqligi bor?
2. Fikringizni *shukronalik, saodat, tinchlik, salomatlik, imkoniyat* so‘zlari yordamida boyiting.

Bugun Zeboning tug‘ilgan kuni. U odatdagidan ertaroq turdi. Kayfiyati ko‘tarinki edi. Oynaga qarab, chuqur o‘yga botdi. Kecha avtobusdagi voqea yana uning xayolida gavdalandi...

Avtobusga yoshi kattaroq ayol chiqdi va undan sal nariroqda o‘tirgan bir qizning tepasiga kelib turdi. Qora ko‘zoynak taqqan qiz ayolga qayrilib ham qaramadi. Kimdir: «Hozirgi qizlar shunaqa, tarbiyasiz bo‘lib ketgan. Opa keling, mana bu yerda joy bor», – deb chaqirdi. Zebo o‘rnidan irg‘ib turdi-da, boyagi ayolga joy berdi.

Zeboning xayolidan: «Shunaqayam bo‘ladimi?» – degan o‘y o‘ta boshladi. Shu payt avtobusning qattiq tormoz olishi uning xayolini buzib yubordi.

Qora ko‘zoynakli qizcha qo‘lidagi kitoblarini tushirib yubordi, keyin ularni paypaslab qidira boshladi...

Yonida o‘tirgan odam qizchaning qo‘lidan tushib ketgan kitoblarni olib, uning qo‘liga tutqazdi.

Zebo yana oynaga qaradi. Lablari o‘z-o‘zidan: «O‘zingga shukur», – deb pichirladi...